



**XOLMIRZAYEV ULUG'BEK ABDULAZIZOVICH,
XAKIMOVA GO'ZAL AKBAR QIZI**

**“SANOAT KORXONALARINING
INNOVATSION SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO'NALISHLARI”**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

XOLMIRZAYEV ULUG‘BEK ABDULAZIZOVICH,
XAKIMOVA GO‘ZAL AKBAR QIZI

“SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI”

ILMIY MONOGRAFIYA

Toshkent-2024

UDS: 604.294.515.30

KBK: 65.9(50`zb)

U.A.Xolmirzayev, G.A.Xakimova. *Sanoat korxonalarining innovatsion samaradorligini oshirish yo‘nalishlari. //Monografiya//* - Toshkent.: “Fan ziyosi” Toshkent 2024. – 101 b.

Jahonda innovatsion omillar hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash borasidagi tajribalar asosida zamonaviy sanoat tarmoqlarining innovatsion faolligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish, xizmat) raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari, korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasi va innovatsion loyihalarni baholash usullari, sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoqlarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning kontseptual yo‘nalishlarini tadqiq etish bu boradagi muhim ilmiy yo‘nalishlarni namoyon etmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan, sanoat tarmogini jadal rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 581,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144,2 mlrd. so'mga ko'paydi. Umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 18,7 % ni tashkil etdi.

Taqrizchilar: U.S.Tursunov - NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

I.Q.Sirojiddinov – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professori v.b., i.f.n.

Ushbu monografiya Namangan muhandislik-qurilish instituti Kengashining 2024 yil 30 apreldagi № 13 - sonli qaroriga asosan nashr etildi.

ISBN: 978-9910-744-75-4

© Ulug‘bek Xolmirzayev,
Go‘zal Xakimova
© “Fan ziyosi”, 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INOVATSION SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	5
1.1. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati hamda nazariy yondashuvlar	5
1.2. Sanoat ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari	16
1.3. Korxonalarning inovatsion samaradarlikni aniqlovchi ko‘rsatkichlar	26
1.4. Korxonalarning iqtisodiy barqarorligi monitoringi mezonlari.....	35
II-BOB. SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA KORXONALARNING INOVATSION FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	43
2.1. Namangan viloyati sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	43
2.2. Sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish shart-sharoitlari va omillari.....	52
2.3. «Noto‘qimachi» aktsiyadorlik jamiyatida inovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlili.....	63
III-BOB. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	73
3.1. Korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish.....	73
3.2. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish.....	79
3.3. Tovar diversifikatsiyasi asosida korxonalar iqtisodiy barqarorligini oshirish.	84
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	96

KIRISH

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda innovatsiyalar keng joriy etilishi halqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni oshirib, barqaror rivojlanish uchun mustaxkam zamin yaratadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning keng yo'lga quyilishi tarmoq iqtisodiy samaradorligi oshishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat innovatsion rivojlanish darajasi hamda sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalqaro innovatsion indeksni baholash natijalariga ko'ra, "iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar orasida Germaniya (2,26 ball), AQSH (1,80 ball), Yaponiya (1,79 ball) va Shvetsiya (1,64 ball) singari mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Bloomberg Agentligining tadqiqotlari bo'yicha 2019 yilda jahonning innovatsion iqtisodiyoti reytingida Janubiy Koreya, Germaniya, Finlyandiya, Shveytsariya davlatlari eng yuqori pogonani egallab turgan"¹. O'z navbatida, innovatsiyalarning rivojlanganligi ushbu mamlakatlardagi sanoat korxonalarining yuqori samaradorligini ham ta'minlamoqda.

Jahonda innovatsion omillar hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash borasidagi tajribalar asosida zamonaviy sanoat tarmoqlarining innovatsion faolligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish, xizmat) raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari, korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasi va innovatsion loyihalarni baholash usullari, sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoqlarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning kontseptual yo'nalishlarini tadqiq etish bu boradagi muhim ilmiy yo'nalishlarni namoyon etmoqda.

Sanoat korxonalarini yuqori darajadagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali innovatsion iqtisodiyotga

¹ <https://theworldonly.org/rejting-innovatsionnyh-ekonomik-2019/>

o'tish bo'yicha katta sayi-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada "...barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi - raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi halqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi"². Mazkur vazifalarni hal etishda sanoat ishlab chiqarishi tizimida innovatsion faollikni oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirish tendentsiyalari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, innovatsion loyihalar samaradorligini baholash, korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmonini amalga oshirish,⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida", 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining" Faol tadbirkorlik, innovatsion goyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonlari, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/uz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>

³ <https://lex.uz/docs/-5030957>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-6102466>

I-BOB. SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INOVATSION SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati hamda nazariy yondashuvlar

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy resurslarga asoslangan modelining yagona muqobil varianti bo'lib, insonlarning intellektual salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish strategiyasi hisoblanadi. Bunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, jahondagi globallashtirish jarayonlar ta'sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo'lib, bu bosqichda iqtisodiy o'sish omillarining roli va o'rnini o'zgartirmoqda. An'anaviy hisoblangan uch omilga, mehnat, yer va kapitalga fan-texnika taraqqiyoti omili ham qo'shildi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi muhim resurslari hisoblangan axborotlar va bilimlar alohida ahamiyat kasb etib, bunda inson salohiyati hal qiluvchi rolga ega bo'ldi.

Jahonda globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi va ilmiy ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va turmush sifati oshirishining zaruriy sharti innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, uning innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, shuningdek, jamiyatning ma'naviy holatiga bog'liq.

Innovatsiya faoliyati umumiy boshqarishning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 10-20 yillarida ajralib chiqdi. Bu davr tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning texnologik va texnik bazasi vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Dunyoda global umumjahon bozori vujudga keldi. Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida yangi ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi oshib bordi.

Texnik jihozlar ko'pgina modellarining (radio-telejihozlar, hisoblash mashinalari, avtomobillar va x.k) hayot davri qisqardi.

Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat fan-texnika taraqqiyot yo'nalishlari, ijodiy va amaliy ishlanmalar hamda tadqiqot natijalarini bevosita amaliyotga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Modomiki, «innovatsiya» kategoriyasining mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va texnologik jihatdan ancha keng tushunchadir. Innovatsion faoliyat va yo'nalishlar sohasi keng ko'lamli bo'lib, nafaqat ilmiy-texnikaviy, texnologik yangiliklar va ishlanmalardan amaliyotda foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki ishlab chiqarilgan tovar-mahsulot, mehnat jarayoni, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqaruv jarayonidagi o'zgarishlarni ham qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” terminiga ko'plab turlicha ta'riflar keltirilgan va keng yoritilgan hamda ushbu hodisa bilan bog'liq jarayonlarning ko'p xususiyatli turkumlanishi taklif etilgan bo'lsa-da, lekin ushbu sohaning umumiy atamashunosligi va tasniflanishida umumiy yondashuv mavjud emas.

Mavjud adabiyotlarda “innovatsiya” kategoriyasining mohiyati ilmiy nazariy jihatdan atroflicha talqin qilingan bo'lib, bu jarayon bilan bog'liq turli xil tavsifdagi jarayonlar izohi keltirilgan. Ular quyidagilardan iborat (1.1-jadval).

“Innovatsiya” tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida dastlabki tadqiqotini amalga oshirgan iqtisodchi olim Yozef Aloiz Shumpeter bo'lib, uning yondashuviga ko'ra, “innovatsion faoliyat - bu mahsulotni takomillashtirish yoki yangisini tayyorlashga intilish, yangi texnologiyani joriy etish yoki sotishning yangi bozorlarini o'zlashtirish, ta'minotning yangi shakllari va yangi manbalarini egallash hamda mehnat va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishdir”⁵.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida innovatsiya o'zgarish jarayoni va omilining muayyan funksiyasi bo'lib hisoblanadi. Y.Shumpeter yondashuviga ko'ra, innovatsiya takomillashtirish jarayoni emas, balki ishlab chiqarish funksiyasining sezilarli darajada almashtirilishi hisoblanib, mehnat va ishlab

⁵ Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й.Шумпетер: пер. с англ.; предисл. В.С. Автономова. - М.: ЭКСМО, 2007. - 864 с.

“Innovatsiya” kategoriyasini aniqlash terminlari tavsifi

Mualliflar	“Innovatsiya” kategoriyasining aniqlanishi
I.Shumpeter	Innovatsiya - tadbirkorlik rudi bilan motivatsiyalashgan ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi (yangi kombinatsiyalar). Maqsadi - yangi ko'rinishdagi tovarlarni joriy etish va foydalanish, ishlab chiqarishning yangi usul va uslublari, xom ashyoning yangi manbalari, yangi bozorlarni o'zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari.
B.Santo	Innovatsiya - ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. Bunda goyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o'z xususiyatlari bo'yicha eng yaxshi mahsulotlar, texnologiyalar yaratishga olib keladi va agarda innovatsiya iqtisodiy samara, foydaga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad olib kelishi mumkin.
K.Nayt	Innovatsiya - bu tashkilot yoki uni bevosita qamrab olgan muhitga munosabat bo'yicha u yoki bu yangisini joriy etishdir.
X.Barnet	Innovatsiyaga «har qanday goya, faoliyat yoki moddiy natija» tegishli, u mavjud shakldan o'zining sifat ko'rsatkichi bo'yicha farqida yangi hisoblanadi.
A.I.Prigojiy	Yangiliklar boshqa ob'ektlarda tug'ilish, o'zlashtirish, diffuziya bosqichlariga texnologiyalar, texnika, boshqaruvning rivojlanishiga olib keladi.
B.Tviss	Innovatsiya - jarayon bo'lib, ixtirolar va yangi g'oyalar iqtisodiy mazmunga ega bo'ladi.
P.N.Zavlin, A.K.Kazantsev, L.E.Mindeli	Innovatsiya - faoliyat jarayoni yoki uning natijalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan u yoki bu ijtimoiy sohada intellektual (ilmiy-texnik) natijalaridan foydalanish.
Fraskati Radbariyati	Innovatsiya - bu amaliy faoliyat yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv asosida foydalaniladigan yangi va takomillashgan texnologik jarayon hamda yangi va takomillashgan ko'rinishda bozorda realizatsiya qilinadigan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir.
R.A.Fatxutdinov	Innovatsiya - iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik va boshqa ko'rinishda samara olish va boshqarish ob'ektini o'zgartirish maqsadida yangiliklarni joriy etishning yakuniy natijasidir.
F.F.Bezdudniy, G.A.Smironova, O.D.Nechaeva	Innovatsiya - bozorda mavjud talabni qondirish imkonini beruvchi va iqtisodiy samara keltiradigan har qanday hayot sohasi va inson faoliyatida yangi g'oyalarni realizatsiya qilish jarayonidir.
S.V.Ildemenov, A.S.Ildemenov, A.P.Vorobev	Innovatsiya - korxona faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi yangi g'oyalarni yaratish va ulardan foydalanishni ommalashtirishning kompleks jarayoni rivojlanishidir.
A.I.Anish, A.A.Dagaev	Innovatsiya - yangi ilmiy-texnik (texnologik), tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish yoki boshqa qarorlarni dastlab amaliy qo'llashdir.
V.G.Zinov	Innovatsiya - yangi iste'mol qiymat ko'rinishida ijodiy jarayonlar natijasidir.
P.N.Mashegov	• innovatsiya keng ma'noda - maqsadga yo'naltirilgan natija hisoblanuvchi qandaydir ijobiy o'zgarish; • innovatsiya nisbiy shakllanish darajasida tizim shakllanishining ichki va tashqi samaradorligi oshirishini ta'minlovchi alohida tizim-o'zgarishidir; • innovatsiya shaxs darajasida - jamiyat talab etadigan intellektual faoliyat natijasidir.
Innovatsion menejment	Innovatsiya (yangilik) yangi ilmiy-texnik (texnologik), tashkiliy-iqtisodiy, amaliy va boshqa qarorlarni dastlab amaliy joriy etish sifatida tasniflanadi.

chiqarish vositalarining o‘zaro yangicha birikishidir.

Aytish lozimki, Y.Shumpeterni avvalambor, innovatsiyalarni joriy etish natijasida uning xo‘jalik faoliyatiga ta’siri qiziqtirgan va bu holat mavjud tayyor mahsulotga yangicha funksiyani kiritish deb hisoblangan. Pirovardida foyda o‘rtacha ko‘rsatkichdan nisbatan yuqori darajani tashkil etadi deyilgan. Y.Shumpeterning fikricha, innovatsiyalar qo‘llanilishi, eng avvalo, mavjud ishlab chiqarish omillarining oshishini emas, balki mavjud omillardan samarali foydalanishning yangi shart-sharoitlariga moslashtirilishini nazarda tutadi.

Y.Shumpeter innovatsion sohaning funksional vazifalarini quyidagicha tavsiflaydi: innovatsiyalar ehtimolli iste’molchilarining tijoriy tahlili; istitsbolli g‘oyalar, mavjudlik manbalarini qidirish; yangilik yaratish va joriy etishni tashkil qilish; ko‘paytirish; ta’minlab turish va yuts qilish.

Innovatsion sohaga yangiliklarni yaratuvchi va uni amalga tadbiiq qiluvchi olimlar, ixtirochilar, konstruktorlik bo‘limlari, venchur va ilmiy-texnik tashkilotlar, nihoyat, ta’lim tizimi kiradi. Innovatsiyaga xos faoliyatning mavhumlik va tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lganligi tufayli uning natijalarini bashorat qilishga oid tadqiqotni bajarish murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, bir qator g‘arb iqtisodchi olimlari (P.Druker, R.Foster, B.Tviss, K. Kristensen, M. Reynor) ham «innovatsiya» tushunchasini yoritib berishda bir-birini to‘ldiruvchi ta’riflar keltirishgan. Y.Shumpeter iqtisodiy o‘shish dinamikasi nazariyasining asoschisidir. Mazkur yo‘nalishning asosiy tamoyillari N.Kondratev⁶ tomonidan uzun to‘lqinlar nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan.

Innovatsiyalar nazariyasi G.Menshning tadqiqotida rivojlantirilib, u ikki nazariy jihatni ajratib ko‘rsatdi: texnologik turtki innovatsion o‘zgarishlarning asosi bo‘lib hisoblanadi, depressiya esa innovatsion faollikning “pastlab ko‘tariluvchi” roliga yuzaga keladi⁷. U innovatsiyani asosiy uchta ko‘rinishga ajratib, iqtisodiy o‘shishning davrlari va sur‘atlari bilan innovatsion faoliyatning intensivligi va tabiat o‘rtasidagi

⁶ Кондратов Н.Д. Проблемы экономической динамики. - М.: Экономика, 1989.

⁷ Mensh G. Stalemate in technology: innovation overcome the depression. - Cambridge (Massachusetts, USA), 1979.

uzviylikni ta'minlashni taklif etadi: "bazis, yuksaluvchi va soxta yangilik"⁸. Muallif innovatsion faoliyatni faollashtirishning muhim drayveri sifatida korxonalar moliyaviy holati yomonlashishi deb hisoblaydi, innovatsiyalar esa investitsiyalar samaradorligini oshirish va u ko'rsatgan "texnologik pat" iqtisodiy rivojlanishdagi turg'unlikni bardosh bilan yengish uchun muhim vosita sifatida aniqlaydi⁹.

Hozirgi vaqtda innovatsiyalar nazariyasida ikkita muhim yondashuv asosiy hisoblanadi, ya'ni "texnologik turtki" va "talabga ta'sir etish". Ular amaldagi tajribaga asoslangan omillarni har xil turlanishidan foydalangan holda izohlaydilar hamda boshqaruvning amaliy masalalarini yoritishda turli xil vositalarni taklif etadilar. Mazkur qarashlar mazmuniga ko'ra tsiklik tavsifga ega bo'ladi yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizimning asta-sekin transformatsiyalashuvini ifodalaydi.

Ilmiy-uslubiy bilish vositasi sifatida tadrijiy rivojlanish ta'limoti dastlab XX asrning 60-70-yillarida shakllana boshladi¹⁰ va u neoklassik nazariyaning ko'plab dastlabki tamoyillarini rad etdi¹¹.

Jarayonli yondashuv doirasidagi tadqiqotlar B.Santoning asarlarida yoritilgan bo'lib, unda "innovatsiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. "Innovatsiya - bu mahsulotlar, texnologiyalarning o'z xususiyatlari bo'yicha eng yaxshilarini yaratishga yo'naltirilgan g'oyalar va kashfiyotlardan amalda foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir va agarda innovatsiya iqtisodiy samara (foyda)ga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad keltirishi mumkin"¹², shuningdek, innovatsion faoliyatning maqsadi nafaqat foyda, balki ijtimoiy farovonlik bo'lishi mumkin.

U.E.Sauder va A.S.Nashar innovatsiyani bozor talabidan kelib chiqib, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan

⁸ Менш Г. Базисные инновации и инновации совершенствования [Текст] / Г. Менш // Журнал экономики предприятия. - 1972. - № 42. - С. 291-297.

⁹ Менш Г. Технологический пат: инновации преодолевают депрессию [Текст] / Г.Менш. - М.: Экономика, 2001. - 211 с.

¹⁰ Нестеренко А.Н. Возможен ли синтез эволюционной экономики и «Мейнстрим» // Эволюционная экономика «Мейнстрим». М.: Наука, 2000, с. 55-61.

¹¹ Нелсон Р., Уинтер С. Эволюционная теория экономических изменений. - М.: Дело, 2002.

¹² Санто Б. Инновация как средство экономического развития: учебник [Текст] / Б.Санто: пер. с венгер. -М.: Прогресс, 2005. - 376 с.

yangi xizmatlar va yangicha yondashuvlarda mujassamlashgan faoliyat natijasi sifatida ta'riflaydilar¹³.

P.Drukerning fikricha, “innovatsion faoliyat - bu yangi biznesni ochish va yangi xizmatlarni ko'rsatish uchun tadbirkorni o'zgarishlardan foydalanish va ularning yangi imkoniyatlarini oshirishni nazarda tutuvchi muhim vositasidir”. U muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy tamoyili sifatida mavjud imkoniyatlar tahlili va mulohaza qilishning muhimligiga diqqat-e'tiborni qarata turib, “innovatsion faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va tizimlilik” asosiy ahamiyatga ega, deb hisoblaydi¹⁴. P.Druker ta'kidlaylik, “innovatsiya - bu ko'proq texnologik emas, balki iqtisodiy termin va korxonalarning butun tarkibiy qismini, uning barcha faoliyat ko'rinishlari va funksiyalarini qamrab oladi”¹⁵. Uning ta'kidlashicha, “...har bir tadbirkor o'zining ishlab chiqarish ob'ektida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, ixtisoslashgan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar esa umuman tadbirkorlik faoliyatining barcha yo'nalishlariga, ilm-fan va texnika taraqqiyotida qo'lga kiritgan yangiliklari bilan ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish usullarini tashkil qilish asosida ularga xizmat qiladi”¹⁶.

B.Tviss innovatsion faoliyat tushunchasiga quyidagi yo'nalishlarni kiritadi – “yangi (yoki takomillashgan) mahsulotdan tijoratda foydalanish yoki yangi (yoki takomillashgan) ishlab chiqarish jarayoni yoki jihozlardan dastlabki tijoratda foydalanishga yo'naltirilgan texnik, ishlab chiqarish va marketing faoliyatidir”¹⁷. Korxonalarning bu faoliyatini doimiy zarurligini ta'kidlab, tadqiqotchi “g'oyalar yoki kashfiyotlarning iqtisodiy mazmunini o'zlashtirish” sifatida uning maqsadlarini aniqlaydi.

K.Kristensen va M.Reynorlar innovatsion faoliyatga quyidagicha ta'rif beradilar: “innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarilgan mahsulotning nomenklaturasini yangilash va sifatini oshirish, uni tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish uchun

¹³ Саудер У.Е., Нашар А.С. Руководство по наилучшим методам трансфера технологий // Управление инновациями. - М.: Дело-лтд, 1995.

¹⁴ Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. - М.: Вильямс, 2007. - 350 с.

¹⁵ Друкер П. Энциклопедия менеджмента [Текст] / П. Друкер. - М.: Вильямс, 2004. - 432 с.

¹⁶ Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. - М.: Вильямс, 2007. - 350 с.

¹⁷ Твисс Б. Управление нововведениями [Текст] / Б. Твисс. - М.: Экономика, 2009. - 272 с.

ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan faoliyatdir”¹⁸. Mualliflar innovatsiyalarni ikki turga ajratadilar: “qo‘llab-quvvatlovchi” va “portlatuvchi”. “Qo‘llab-quvvatlovchi” innovatsiyalar joriy iste‘mol tavsifi doirasidagi mavjud mahsulotlarni takomillashtirish, “portlatuvchi” esa yangi mahsulotlar turidan yuqori darajada farq qilmaydigan, arzon va foydalanishda oddiy bo‘lishi asosida yaratilgan mavjud mahsulotlar, texnologiyalar, tarmoqlar va bozorlarni egallashga yo‘naltirilgan faoliyatlardir¹⁹.

R.A.Fatxutdinov innovatsion faoliyatni strategik marketing, ilmiy tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga joriy etish, ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorlash, yangiliklarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish, ularni joriy etish (yoki innovatsiyalarga aylantirish) va boshqa sohalarda ommalashtirish jarayoni sifatida ta’riflaydi²⁰. Muallifning fikricha, “innovatsion faoliyat - avvalambor, muayyan texnologiyalar, bajariladigan ish tartiblari bo‘yicha amalga oshiriladigan aniq harakatlar mazmuni va tarkibini ifodalaydi”²¹.

“Innovatsiya” kategoriyasining ijtimoiy sohada ommalashishi uning qo‘llanish doirasini kengaytirdi. P.N.Zavlinning²² tadqiqotlarida va A.E.Kogut²³ taxriri ostida chop etilgan to‘plamda “innovatsiya” tushunchasini qo‘llanilishi inson faoliyatining istalgan sohasidagi yangilikni ifodalash uchun, ya’ni ob’ektning mavjud holatidan farq qilishiga olib keluvchi istalgan o‘zgarishga innovatsiya deb qarash mumkinligi ta’kidlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur qarashdan I.B.Gurkovning asarida keltirilgan: “Innovatsiya – g‘oya (fikir) yoki amallar tarzining (tizim, dastur, qurilma, jarayon, mahsulot yoki xizmat) qabul qilinishi bo‘lib, qo‘llashga qabul qilayotgan tashkilot uchun ular yangilik hisoblanadi”²⁴. Mazkur yondashuvga ko‘ra innovatsiya deb, korxona, tashkilot darajasida turli xil faoliyat sohasidagi istalgan o‘zgarish

¹⁸ Кристенсен К. / Решение проблемы инноваций в бизнесе. Как создат растущий бизнес и успешно поддерживает его рост [Текст] / Кристенсен К., Рейнор М. - М.: Алпина Паблишер, 2014. - 290 с.

¹⁹ Кристенсен К. Дилемма инноватора [Текст] / К. Кристенсен: пер. с англ. - М.: Алпина Бизнес Букс, 2012. - 239 с.

²⁰ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. 6-е изд., испр. и доп. [Текст] / Р.А. Фатхутдинов. - СПб.: 2011. - 448 с.

²¹ Уша ерда. 335-б.

²² Завлин Г.Ш. Инновации в рыночной экономике // Гуманитарные науки. 1997, №3. с. 4-5.

²³ Преобразование научно-инновационной сферы в регионе: понятийный аппарат / РАН. Институт социально-экономических проблем, Сер. Теория и практика управлений научно-инновационной сферой в регионе / Под. ред. А.Е.Когута. - СПб., 1995, с. 6-8.

²⁴ Гурков И.Б. Инновационное развитие и конкурентоспособность. Очерки развития российских предприятий. - М.: ТЕИС, 2003. с. 8.

tushuniladi. Bizning fikrimizcha, “innovatsiya” tushunchasining bunday yondashuvini yetarlicha chegaralangan deb aytish mumkin. Shunday ekan, “innovatsiya” atamasini yoritib berish va baholash bo‘yicha yagona uslubiy yondashuv va tamoyillarning mavjud emasligini ta’kidlash mumkin.

V.I.Guninning ishida innovatsion faoliyat o‘z ichiga innovatsion jarayon sifatida aks etuvchi texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy yangiliklarni ishlab chiqish va amalda o‘zlashtirishni olishi ta’kidlangan²⁵. Innovatsion jarayonlardan tashqari u innovatsion faoliyatga “marketing tadqiqotlari, tashkiliy, axborot, konsalting, ijtimoiy va boshqa xizmat turlari” ni ham kiritadi.

O‘zbekistonlik olimlardan X.M.Abdusattarovaning fikricha, “yangilik kiritish - bu biron-bir faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarning rasmiylashtirilgan natijasidir”²⁶.

F.B.Shakirovaning tadqiqot ishida “Innovatsiya - insonning aql- zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan, ayni vaqtda, iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgan intellektual mulk ko‘rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g‘oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir”²⁷, degan mualliflik ta’rifi shakllantirilgan. Agar innovatsion g‘oya yaratilsada, ishlab chiqarishga tatbiq etilmasa, o‘zining iqtisodiy nafliligini isbotlamasa, innovatsiya hisoblanmaydi. Yaratilgan innovatsiyalar tijoratlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb, hisoblash mumkin. Ushbu ta’rif mazmuniga ko‘ra, innovatsiyalar g‘oyalar, ishlanma, kashfiyotlardan iborat bo‘lmay, balki innovatsiyalar tarkibiga umumtaraqqiyotga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va mulk ob’ektlarini samarali amalga oshirishga oid tashkiliy-boshqaruv tavsifidagi mutlaqo yangicha innovatsion yondashuv va tamoyillarni o‘zida mujassam etadi.

A.J.Kahhorovning yondashuviga ko‘ra, marketingni iqtisodiy faoliyati sifatida olib qaralganda unda qo‘llaniluvchi yangi vosita va usullar ham innovatsion faoliyat

²⁵ Управление инновациями: 17-модульная программа для менеджеров. Управление развитием организации. Модуль 7 [Текст] / Гунин В. И. [и др.]. - Москва: ИНФРА-М, 1999. - 328 с.

²⁶ Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. O‘quv qo‘llanma - T.: TDIU, 2011. 10-bet.

²⁷ Shakirova F.B. "Innovatsion rivojlanish negizida barqaror iqtisodiy o‘rnatish mexanizmini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2018 y. 13-14-betlar

hisoblanadi. Shunga ko'ra, muallifning fikricha, "Innovatsion marketing - yangi g'oyalarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirib borish hamda innovatsion texnologiyalar yordamida tijoratlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat"²⁸, deb ta'rif berilgan.

G.B.Shanazarovning yondashuviga ko'ra, innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy-texnik salohiyat tushunchasi bilan uzviy aloqador kategoriya ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, "innovatsion salohiyat - xo'jalik yurituvchi sub'ektning mansubligi, mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy maqomi, o'lchamidan qat'iy nazar ixtiyoriy xo'jalik yurituvchi sub'ektning yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, kashfiyot, ixtirolarni, foydali modellarni yaratish faoliyatida samarali qo'llash bo'yicha mavjud intellektual, moliyaviy, kadr, axborot, moddiy-texnik va boshqa resurslari hamda imkoniyatlari yig'indisidir"²⁹.

I.I.Ergashevning yondashuviga ko'ra, "innovatsiya - bu muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv va boshqa turdagi samaralarni keltiradigan, amaliy faoliyatga joriy qilingan, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilinadigan, yangi iqtisodiy mahsulotda mujassamlashgan bilimlar o'zgarishining natijasi hisoblanadi"³⁰.

D.A.Raxmonov yangi g'oyalarni innovatsiyalar sifatida qabul qilish uchun innovatsiyaning o'lchov mezonini aniqlash va uni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Bu albatta innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish uchun iqtisodiy baholashga shart-sharoit yaratadi³¹.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda "innovatsiya" kategoriyasining mohiyatini yoritishda, biz, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratlik:

- innovatsiya tushunchasi yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi

²⁸ Kahhorov A.J. "O'zbekiston avtomobil transporta tizimida innovation marketing faoliyatini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2018 y. 11-bet.

²⁹ Shanazarova G.B. "Sanoat korxonalarida innovation salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (Pxd) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2018 y. 11-bet.

³⁰ Ergashev I.I. Xizmat ko'rsatish innovation-investision jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish // Diss. IKT. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). - Samarqand: SamISI, 2018. 25-b.

³¹ Raxmonov D.A. "Innovatsiya: mohiyati va uni moliyalashtirish asoslari" // "xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2019 yil.

yangiliklarni joriy qilish, sarf-harajatlarni tejash imkoniyatini yaratishni o'zida ifodalaydi;

- turli ko'rinishdagi innovatsiyalar uchun umumiy (bazisli, amaliyotga tatbiq etiluvchi, mahsulotni diversifikatsiyalash, yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlar) bo'lgan ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini o'zida namoyon etadi. Mazkur bosqichsiz innovatsiya mavjud emas. Bu innovatsiya tushunchasining asosiy mazmunidir.

Ushbu xususiyatlar innovatsiyaning bevosita xossalari bo'lib, ularning yangiligi, ularni yangi ishlab chiqarishda qo'llay olinishi, iqtisodiy samara berishi va uning albatta, iste'molchilar talabiga javob bera olishidir.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uni quyidagicha talqin etamiz: "innovatsiya - bu yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-harajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir".

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat zamonaviy sanoat tarmoqlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun birinchi navbatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar paydo bo'ladi.

Sanoatning fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish asoslari MDH va xorijlik olimlardan: G.Vulfen, I.L.Tukkel, S.Kaplan, N.P.Maslennikova, B.Z.Milner, V.M.Mishin, I.Nonaka, G.Pisano, A.A.Strex, R.Foster, G.Chesbro, A.A.Chursina kabilarning asarlarida tadqiq etilgan. Ulardan ba'zilarining yondashuvlarini qarab chiqamiz.

G.Vulfen o'z asarida FORTH (qisqartma so'z bo'lib, Full Steam Ahead ("Olta!")), Observe & Learn ("Ko'zatish va xulosalar"), Raise Ideas ("g'oyalarni ishlab chiqish"), Test Ideas ("g'oyalarni sinovdan o'tkazish") (Homecoming ("Uyga

qaytish”)) usulini ishlab chiqdi³². Bu usul innovatsion jarayonning har bir bosqichi uchun aniq harakatlar ketma-ketligini nazarda tutadi hamda muallifning fikriga ko‘ra, yangi mahsulotlar va xizmatlarni samarali yaratish uchun zaruriy vositalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu muallifning ishi ko‘proq psixologik yo‘nalish bo‘lib, aniq mexanizmlarni yaratishga nisbatan innovatorlarning shaxsiy o‘lishiga yo‘naltirilgan.

G.Pisano kompaniyalarda innovatsion strategiyalar va boshqa faoliyat o‘rtasida kelishmovchilik sifatida innovatsion faoliyatni boshqarishning asosiy muammolari, ularni moliyalashtirish uchun innovatsion loyihalar o‘rtasida ustuvorliklarni aniqlashning murakkabliklarini aniqlaydi. U ko‘rsatilgan muammolarni hal qilish imkoniyati sifatida quyidagi funksional vositalarni ishlab chiqishni taklif etadi: “moliyaviy resurslarni taqsimlashning tashkiliy tarkibi va bajarilish tartibi, jarayonlar, innovatsion strategiyalar o‘rtasida muvofiqlik va o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlash; barqaror raqobat ustunligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan kompaniyalarning aniq maqsadlarining shakllanishi; bahoni shakllantirish bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish; turli ko‘rinishdagi innovatsiyalarni tanlash va realizatsiya qilishning parallel bajarilish tartibini joriy qilish; turli xil innovatsion strategiyalar o‘rtasida balansni toppish”³³.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlab aytish mumkinki, innovatsion faoliyat - innovatsion g‘oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo‘llanilishi va amalga oshirilishini ta‘minlovchi faoliyat.

Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalarga quyidagi iqtisodiy faoliyat ko‘rinishlari tegishli: elektron va radio elektron sanoat, ofis jihozlari ishlab chiqarish va hisoblash texnikasi, hisoblash va nazorat vositalari, farmatsevtika mahsulotlari va tibbiyot buyumlari, uchish apparatlari.

Bilimlarga asoslangan yangi iqtisodiyot shakllanishiga yuqori darajada ta‘sir ko‘rsatuvchi va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi fan sig‘imi yuqori iqtisodiy faoliyat ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi: ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar.

³² Вулфен Г. Запускаем инновации. Иллюстрированный путеводитель по методике FORTH [Текст] / Г. Вулфен: пер. с англ. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2014. - 256 с.

³³ Pisano G.P. You need an innovation strategy [Text] // Harvard business rev. - Boston, 2015. - Vol. 93, N 6. - P. 44-54.

1.2. Sanoat ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari

Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o'sishni ta'minlovchi yangiliklarni uluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko'rsatmoqda. Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va "aqlli" texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g'oyalar va ishlanmalarga asoslanadi.

Boshqacha qilib aytganda, biz O'zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim. Qo'yilgan maqsadlarga O'zbekistonni rivojlanishning innovatsion modeliga to'liq o'tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini takozo etadi.

Biz tomonimizdan 1.1-paragrafda ko'rib chiqilgan innovatsiya tushunchasi tadqiqotining keyingi bosqichida uning tasnifi to'g'risida masalaga o'tishni nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyalarning ikki asosiy nuqtai nazardan iborat bo'lgan tasnifi quyidagilardan iborat:

1. Aniqlash belgisiga ko'ra, iste'mol qiluvchi sub'ekt tavsifini taklif etamiz. Agar innovatsiyalar korxonalarda (tashkilotlar, davlat tashkilotlari, firmalar va b.) foydalanilsa, u holda ular texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Agar iste'mol qiluvchi sub'ekt alohida individ bo'lsa, u holda maqsadga muvofiq ravishda iste'mol innovatsiyalari to'g'risida gapirish mumkin. Bunday tasniflashning shartli ekanligi

ko'p miqdordagi yangiliklar bilan ifodalanadi va ularni bir vaqtning o'zida ham texnologik, ham iste'mol innovatsiyalariga kiritish mumkin. Ammo shunga qaramasdan, bunday tasnif innovatsiyalarning ommalashishiga ko'ra, foydali bo'lishi mumkin.

Amerikalik mutaxassislarning fikriga ko'ra, texnologik innovatsiyalarning ommalashishiga talab shart-sharoitlari alohida ta'sir ko'rsatadi, iste'mol innovatsiyalarining ommalashishiga esa taklif sharoit-sharoitlari ta'sir ko'rsatadi³⁴.

2. Innovatsiyalar texnik va tashkiliy turlarga bo'linadi. Keyingilariga ijtimoiy tarkib tizimining o'zgarishini kiritish mumkin. Odatda texnik innovatsiyalar asosida yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki yangi xizmatlar nazarda tutiladi. Ba'zida muvaffaqiyatli innovatsiyalar bir vaqtning o'zida mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlardagi o'zgarishlar samarasining summasiga asoslanadi. Biroq ko'pchilik kompaniyalar tashkiliy jihatlarga ega bo'lgan hamda unga sarflangan mablag'larni tezda oqlaydigan innovatsiyalar ko'rinishida realizatsiya qilinadi. Masalan, ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi innovatsiyalar marketing va sotishning yangi usullarini ham o'z ichiga oladi. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy innovatsiyalarning ahamiyati muntazam ravishda o'sib bormoqda. Bozor segmenti, chegaralari va raqobat bazasi o'zgarishi natijasida strategik va tarkibiy tavsifdagi innovatsiyalarning ahamiyati oshmoqda. Texnik innovatsiyalar nafaqat asosiy ko'rinishlari (yangi mahsulot, yangi jarayon, yangi xizmat) bo'yicha tasniflanishi, balki ularning fan sig'imi yoki kapital sarflar va ularni qoplash muddatlariga qarab ham guruhlariga ajratilishi mumkin. Ko'pchilik yirik kompaniyalar innovatsiyalarning turli ko'rinishlarini realizatsiya qiladilar.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya ko'rinishlari hamda ularni joriy etish bosqichlari va natijalarini realizatsiya qilish doirasida ko'rsatilgan faoliyat ko'rinishlari bilan innovatsiyalarni amalga oshirishning muhim tavsifi ishlab chiqildi. Innovatsion jarayonlar turli bosqichlar (ilmiy, texnik, texnologik, ekspluatatsion) da amalga oshirilishi mumkin. Barcha ko'rinishdagi innovatsiyalar (fundamental tadqiqotlar bosqichidan tashqari) ixtiro sifatida tijorat maqsadida foydalaniladi.

³⁴Industrial Innovation. P. 83-88, 219.

Boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi innovatsiya turi ustun hisoblanadi. Innovatsiyalarni tahlil qilishning muhim bosqichi bo'lib, bir qator asosiy belgilari bo'yicha tasnifi hisoblanadi. Muallif tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida innovatsiyalarning xususiyatlarini tavsiflovchi va turli xildagi innovatsiyalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini ifodalovchi muayyan belgilari bo'yicha alohida tasnifi ishlab chiqildi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Innovatsiya turlari tasnifi⁵²

	Tasniflash belgilari	Innovatsiya turlari
1.	Muhimligiga ko'ra	Bazisli, yangilangan, soxta innovatsiyalar
2.	Yo'nalishlariga ko'ra	O'rmini to'ldiruvchi, ratsional, kengayuvchi
3.	Hayotiylik davrining tarmoq tuzilishiga ko'ra	Iste'mol qilish sohasi, tatbiq qilish sohasi, vujudga kelish sohasi
4.	O'zgarishlar darajasiga ko'ra	Birlamchi uslublarni o'zgartirish (nolinchi tartib), miqdorni o'zgartirish (birlamchi tartib), qayta guruhlash (ikkinchi tartib), moslashish o'zgarishlari (uchinchi tartib), yangi variant (turtinchi tartib), yangi avlod (beshinchi tartib), yangi ko'rinish (oltinchi tartib), yangi mahsulot (ettinchi tartib).
5.	Innovatsiyalarni ishlab chiqishga munosabat bo'yicha	Korxona tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar, tashqi kuchlar yordamida ishlab chiqilgan innovatsiyalar.
6.	Ommalashish ko'lamiga ko'ra	Yangi tarmoqni yaratish uchun, barcha tarmoqlarda joriy qilish uchun.
7.	Ishlab chiqarish jarayonidagi rolga ko'ra	Asosiy (mahsuldor va texnologik), qo'shimcha (mahsulot va texnologik).
8.	Ehtiyojni qondirish tavsifiga ko'ra	Yangi ehtiyojlar, mavjud ehtiyojlar.
9.	Yangilik darajasiga ko'ra	Ilmiy jihatdan yaratilgan yangilik, oldin mavjud bo'lganlariga yangi uslublarni qo'llash asosida.
10.	Bozorga chiqish vaqtiga qarab	Yetakchi lider innovatsiyalar, keyinchalik bo'ladigan innovatsiyalar.
11.	Vujudga kelish sabablariga ko'ra	Reaktiv, strategik
12.	Qo'llash predmeti va doirasiga ko'ra	Oziq-ovqatlar, yangi mahsulotlar, yangi materiallar, bozorlar, qo'llashning yangi sohalari, yangi bozorlar, jarayonlar, ishlab chiqarish, boshqarish va ma'muriyat, ilmiy-texnik, ijtimoiy-madaniy.

Biz tomonimizdan, innovatsiyalar asosiy 12 ta tasnifiy belgilarga ajratildi. Ularning alohida belgilariga tasnifi turli xil olimlar tomonidan aniqlangan va tadqiq

etilgan. Analitik va tizimli tahlil yo'li bilan mualliflar tomonidan 39 turdagi innovatsiyalar aniqlandi. Modomiki, ba'zi turdagi innovatsiyalar ko'pincha bir-birini to'ldiradi, alohida turdagi innovatsiyalar esa ba'zida bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramasdan, yaxlit holda qarab chiqilgan belgilar jami innovatsiyalarni tizimli tavsifini aniqlashni nazarda tutadi.

Innovatsiyalar tasnifining asosiy belgilarini qarab chiqib, innovatsiyalar tizimining elementlari va uning tarkibini tadqiq etamiz. Shunday qilib, texnologik innovatsiyalar iqtisodiy samarasiga ko'ra, G.Menshning belgilangan chizmasiga muvofiq tasniflanadi³⁵. Ushbu yondashuv doirasida u bazisli, yangilangan, soxta innovatsiyalarga ajratadi. Bazisli innovatsiyalar (dastlabki) - bu yangi bozorlarni tashkil topishi va yangi sanoat tarmoqlarini paydo bo'lishi uchun asos yaratadigan innovatsiyalardir. Yangilangan innovatsiyalar - bu yangi tovarlar va texnologiyalarni me'yoriga yetkazish jarayonida paydo bo'luvchi, ularning ularni bozor talabiga maksimal darajada moslashtiruvchi innovatsiyalardir. Soxta innovatsiyalar - bu texnik taraqqiyotga qaraganda takomillashish, modifikatsiyalashish bilan birlashuvchi ko'rinishi o'zgargan holda realizatsiya qilinadigan innovatsiyalardir.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha o'rnini to'ldiruvchi, ratsional va kengayib boruvchi innovatsiyalarga bo'linadi³⁶. Kengayib boruvchi innovatsiyalar bazis innovatsiyasiga ega bo'lgan barcha sohalarga va bozorga chuqur o'rnashib olish maqsadiga mo'ljallangan innovatsiyalardir (masalan, ommaviy tarzda shaxsiy kompyuterlardan foydalanishga o'tish). Ratsional mazmuniga ko'ra tashqi ko'rinishi o'zgartirilgan mahsulotlarga yaqin turadi. O'rnini bosuvchi innovatsiyalar shu funksiyalarni bajarishga asoslangan bir mahsulotning (oldingisini) o'rnini ikkinchi mahsulot (yangisi) egallashidir.

Hayotiylik davrining tarmoq tuzilishiga ko'ra innovatsiyalar iste'mol qilish sohasi, tatbiq qilish sohasi, vujudga kelish sohasi jarayoniga qarab bo'linadi.

O'zgarishlar darajasiga ko'ra innovatsiyalar tasnifi ko'p hollarda yuqorida ko'rib chiqilgan sabablarni o'z ichiga oladi. Ammo shunga qaramasdan, u ko'rib

³⁵ Mench G. Stalemate in technology. Cambridge (Mass). 1979.

³⁶ Длинные волны: научно-технический прогресс и социальное развитие / Глазев С.Ю., Микерин Г.И., Тесля П.Н. и др. / - Новосибирск: Наука, 1991. - 224 с.

chiqilayotgan tarmoqda mavjud, chunki u ketma-ket past darajadagi innovatsiyalardan yuqori innovatsiyalarga o'tish jarayonini kuzatishga imkon beradi va rivojlanishi bo'yicha boshqa belgilarga ko'ra tasniflanadi.

Nol tartibidagi innovatsiyalar - tarmoqning birlamchi xossalarini qayta tiklash bo'lib, uning mavjud funksiyalarini saqlab qolish va yangilashdir. Birinchi tartibdagi innovatsiyalar - tarmoqning miqdor xossalarini o'zgartirish hisoblanadi. Ikkinchi tartibdagi innovatsiya - tarmoq faoliyatini yaxshilash maqsadida tarmoq tarkibiy qismini qaytadan guruhlashni o'z ichiga oladi. Uchinchi tartibdagi innovatsiyalar - bir-biriga moslashtirish maqsadida ishlab chiqarish tarmogi elementlarini o'zgartirish jarayonidir. To'rtinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi variant bo'lib, oddiy moslashish doirasidan tashqari chiquvchi sifat o'zgarishlaridir, bunda tarmoqning birlamchi belgilari o'zgarmaydi - ularning ba'zi foydali xossalari o'zgarishi mumkin. Beshinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi avlod bo'lib, tarmoqning barcha yoki ko'p xossalari o'zgarishini bildiradi. Bunda asosiy tarkibiy kontseptsiya o'zgarmaydi. Oltinchi tartibdagi innovatsiyalar yangi ko'rinish bo'lib, tizimni dastlabki xususiyatlarining sifat o'zgarishidir, uning kontseptsiyasi funktsional tamoyillarning o'zgarimasligidir. Yettinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi tur bo'lib, tizimning funktsional xossalarini yuqori o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Innovatsiyalar manbaiga ko'ra, iste'molchilar uchun ularni ichki va tashqiga bo'lish mumkin. Innovatsiyalarning ko'pchiligi tashqiga kiritiladi, chunki rivojlangan ixtisoslashgan ishlab chiqarish sharoitida iste'molchilarning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yangiliklar tashqi manbalardan olinadi.

Ishlab chiqarish jarayonida o'rni va roli bo'yicha innovatsiyalarni asosiy va qo'shimcha. turlarga ajratish mumkin. Asosiy mahsulot innovatsiyalari yangi bozorlarni yaratadi va asosiy yangi tarmoqda bo'ladi, qo'shimcha innovatsiyalar muvofiq sohalarda bozorni kengaytiradi.

Mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, yirik korxonalar ba'zida tayyorlanayotgan mahsulotga harajatlarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish texnologiyalariga yoki oziq-ovqat differentsiatsiyasiga yangiliklar kiritishga

ixtisoslashadi. Bu vaqtda kichik va o'rta korxonalar oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha yangiliklarni bozorga joriy qilish bo'yicha siyosatni amalga oshiradilar.

Iqtisodiyotga eng keskin ta'sir ko'rsatadigan barcha texnik innovatsiyalar to'liqsimon ta'sir kuchiga ega bo'lgan bazis yangiliklarni kiritishni nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, ushbu belgilar bo'yicha tasnif bozor belgilari bo'yicha tasnifga o'xshab ketadi. Ehtiyojlarni qondirish tavsifi bo'yicha innovatsiyalar mavjud iste'molga yoki yangilarini yaratishga yo'naltirilishi mumkin.

Yangilik darajasiga ko'ra, innovatsiyalar yangi ochilganga asoslanishi yoki ochiq jarayonga joriy etiluvchi yangi uslub asosida yaratilishi mumkin.

Innovatsiyalarning tanlangan strategiyasiga bog'liq holda bozorga chiqish vaqti bo'yicha yetakchi lider innovatsiyalar, keyinchalik bo'ladigan innovatsiyalarga bo'lish mumkin. Qo'llash predmeti va doirasiga ko'ra, oziq-ovqat, yangi mahsulotlar, yangi materiallar, bozorlar, qo'llashning yangi sohalari, yangi bozorlar, jarayonlar, ishlab chiqarish, boshqarish va ma'muriyat, ilmiy-texnik, ijtimoiy-madaniy innovatsiyalarga tasniflanadi.

Yuqorida keltirilgan belgilar asosida innovatsiya turlari tasnifidan tashqari asosiy iqtisodiy kategoriyalar daromadlar va realizatsiya qilish vaqtiga bog'liq holda ularni beshta turi bo'yicha tasnifini ishlab chiqlik (1.3-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinib turiblik, o'xshash va oziq-ovqat innovatsiyalarining qisqa va o'rta muddatdagi rentabelligi fundamental va texnologik innovatsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini oshiradi.

Bizning fikrimizcha, fundamental va texnologik innovatsiyalar o'xshash va mahsulot innovatsiyalarining darajasini berish xususiyatiga ega. Boshqacha aytganda, muvofiq resurslar va daromadlilik imkoniyatlari bilan birgalikda pogonaning pastroq zinasida innovatsiyalarni olish imkoniyatlari, yutuqlari va bilimlarini tez-tez keyingi bosqichga o'zgartirish sodir bo'ladi.

Innovatsiya turlari tasnifi

Innovatsiyalar	Realizatsiya qilish vaqti	O'rta muddatdagi istiqbolda daromadliligi	Resurslar ko'rinishlari bo'yicha xususiyatlari
Fundamental	Uzoq muddatli	O'zini qoplamaydi	Zarur: ko'p miqdorda mablag', uzoq muddatli kreditlash, yuqori ilmiy salohiyatga ega kadrlar, texnologik bazaning rivojlanishi, fanning laboratoriya bazasi, noyob bilim.
Texnologik	O'rta va uzoq muddatli	Nisbatan yoxud ba'zida o'zini qoplaydi	O'rta muddatli kredit, yuqori malakali muxandis kadrlar, sanoat infratuzilmasining rivojlanishi, zamonaviy jamg'armalar, texnologiyalarni almashtirishda ishlab chiqarish imkoniyatlari egiluvchanligi.
Takomillashuvchi	O'rta muddatli	O'zini qoplaydi	Qisqa va o'rta muddatli kreditlar, malakali kadrlar, takomillashishga ehtiyoj, bunday faoliyat uchun zaxira.
O'xshash	Qisqa muddatli	To'liq o'zini qoplaydi	Ko'p bo'lmagan miqdordagi mablag', yangi natijalarni qabul qilish bo'yicha sanoat tizimi imkoniyatlari. Buning uchun tayyorlangan kadrlar va jamg'arma bazasi.
Mahsulot	Qisqa va o'rta muddatli	To'liq yoki asosan o'zini qoplaydi	Qisqa va uzoq muddatli kreditlar, mahsulotlarga talab, malakali muxandis kadrlar, mazkur mahsulotlarni tayyorlashni nazarda tutuvchi jamg'armalar.

Shunday qilib, innovatsiyalarni realizatsiya qilish jarayonining muhim tavsifi bo'yicha tasnifini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- korxonalar faoliyatining u yoki bu ko'rinishdagi strategiyasiga innovatsiya turlarini bog'liqligini amalga oshirish. Boshqacha aytganda, innovatsiya strategiyasining har qanday darajasi innovatsiyalar turiga bog'liqdir;
- innovatsiya turlariga bog'liq holda boshqaruvning tashkiliy shakllarini tanlash va iqtisodiy mexanizmini aniqlash;
- innovatsiyalarning farqli jihatlariga bog'liq holda ularning turli xil ko'rinishlarini bozordagi segmenti darajasini aniqlash.

Zamonaviy yirik sanoat korxonalari tizimning barcha tavsifiga mo'ljallangan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ilmiy- texnik tizimni o'zida namoyon etadi: kirish, chiqish, jarayon, maqsad, teskari aloqa va boshqalar. Sanoat korxonalari

ta'minotchilardan resurslar (yoqilg'i, energiya, jihozlar, materiallar, komplektlovchi buyumlar)ni oladi, ishlab chiqarish jarayonida jamoaning mehnat faoliyati natijasida amalga oshiradi, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradi va iste'molchilarga ularni jo'natadi. Ta'minotchilari va iste'molchilaridan tashqari korxonaga munosabat bo'yicha tashqi muhit omili sifatida yuqori tashkilotlar hamda ta'minotchilar va iste'molchilar bilan barcha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar hisoblandi.

Korxonalar har qanday murakkab tizim sifatida muayyan funksiyalarni bajaruvchi o'zaro munosabatga kirishadigan ko'pchilik tarkibiy tizimdan iborat, natijada ushbu murakkab tizim yangi xususiyatga ega bo'ladi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish-texnik munosabatlar ishlab chiqariladigan mahsulotlar (ish, xizmatlar) turlari, uni tayyorlash texnologiyalari va ishlab chiqarish hajmi bilan muvofiqlikda miqdor va quvvatlar bo'yicha mutanosib texnik-texnologik kompleksni, ishchi mashinalari tizimi va mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy-texnik jihatidan bozorda raqobat ustunligini yaratishga qodir, noyob xususiyatlarga ega, yangi tovarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xodimlar, mashina va mexanizmlarning o'zaro munosabatini bildiradi.

Endi loyihalar portfelini boshqarish doirasida yirik ishlab chiqarish kompaniyalarida sodir bo'ladigan innovatsion jarayonlar xususiyatlarini qarab chiqamiz.

1. Qarorlarni qabul qilish uchun direktorlar kengashida takliflarni kiritish va innovatsion faoliyatning muhim yo'nalishlarini aniqlash, ilmiy-texnik siyosatni (har bir tashkiliy tuzilma ishlab chiqarilayotgan mahsulotning murakkabligiga qarab yaratiladi, bunda kengash qo'mita yoki guruhga nisbatan muhim rol o'ynaydi) ishlab chiqish bo'yicha ixtisoslashgan bo'lim, kengash yoki ishchi guruhni boshqarishning yuqori darajasini yaratish. Ularning tarkibiga marketing xizmati rahbarlari, ITTKI, moliya, sotish, ishlab chiqarishni ta'minlash, markaziy xizmat vakillari, ishlab chiqarish boshliqlari kiradi.

2. Innovatsion loyihalarni rejalashtirish va baholash, g'oyalarni muhokama qilish yo'li bilan turli xil bo'limlar ishtirokchilarining innovatsion faoliyatini kelishuvi

va muvofiqligini amalga oshiruvchi ham zavodlarda, ham boshqaruv kompaniyalarida yangi mahsulotlarni rivojlantirish markaziy xizmatini yaratish.

3. G'oyadan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha innovatsion jarayonlarni kompleks amalga oshirish uchun 10-15 kishi tarkibida mustaqil xo'jalik qismlarini - yangi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha markazlar yoki maqsadli loyiha guruhlarini 2-3 yildan 10 yil va undan ko'proq muddatga tashkil etish. Bunday guruhlar firmaning boshqa bo'limlari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga majbur emas, xususiy motivatsiyalar tizimiga ega va yangilik kiritishni moliyalashtirish va rentabellik masalalarini hal qilishda faqatgina firmaning yuqori boshharuviga bo'ysunadi.

4. ITTKIning bo'limlari rolini oshirish: ular nafaqat yangi istiqbolli g'oyalarni qidirish va ishlab chiqishni, balki ularni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va sotish bosqichigacha yetkazishni olib boradilar. Bunda ularni moliyalashtirish hajmi mahsulotlarni sotish hajmini 3 dan 10 foizgacha oshishini ta'minlaydi.

5. "Riskli kapital"ni mustaqil jamg'armalari va innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtirish maqsadida kompaniya foydasining bir qismi hisobiga innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning maxsus jamg'armalarini yaratish asosida venchur bo'limlarini shakllantirish.

6. Tadqiqotchilar, rahbarlar, funksional bo'limlar vakillari tarkibida maslahat yoki analitik guruhni tashkil etish. Ularning funksiyasiga: yangi mahsulotga talab va yangi texnologiyalar rivojlanishini istiqbollashtirish, istiqbolli g'oyalarni tanlash, tadqiqot mavzularini aniqlash, maxsus loyihalar doirasida olimlar va muxandislar ishlarini muvofiqlashtirish.

7. Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish muammolari bo'yicha maxsus tarmoq laboratoriyalarini yaratish.

Hududiy ilmiy-texnik va ijtimoiy dasturlarni realizatsiya qilish ilmiy (universitetlar), sanoat va moliyaviy tashkilotlar, turli xil ilmiy- sanoat markazlari birlashmalarini muvofiq tarzda tashkil etish bilan bog'liqdir.

Innovatsion loyihalarning tavakkalchilikka asoslanganligi "venchur fondlari" ko'rinishida investorlarning tashkiliy shakllari va yangiliklarni yaratuvchi

firmalarning innovatsion shakllari adekvatligini yuzaga keltiradi. Ko‘p miqdordagi resurslarni jalb qiladigan va uzoq muddatga hisob-kitob qilinadigan dasturlarning juda ham muhimligi ilmiy va texnologik parklar, texnopolislarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalari faoliyatining natijasi bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlar sifatining oshishi innovatsiyalarni joriy qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Odatda mahsulotlar va xizmatlarning sifati va iste‘mol tavsifi raqobatchilarning mahsulotlar va xizmatlari bilan taqqoslash asosida aniqlanadi. Ushbu haqiqatni hisobga olish kerakki, raqobatchilarning mahsulotlar va xizmatlari rivojlanishi ham bir joyda to‘xtab turmaydi, bunda muhim jihat bo‘lib, korxonalar mahsulotlari va xizmatlarining bozorga chiqishida zamonaviyligi egallaydi. Bozorga mahsulotlar va xizmatlar chiqishining zamonaviyligi ushbu mahsulotlar bilan bog‘liq innovatsion loyihalarni amalga oshirish muddatlari bilan uzviy hisoblanadi. Chunki innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish o‘z vaqtida sodir bo‘lishi zarur.

Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirish tartibi qayta qurish bosqichidadir, shuning uchun innovatsion loyihalarni boshqarish ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni metolik ta‘minlashdagi kamchilik bo‘lib hisoblanadi. Mazkur holatdan kelib chiqadigan bo‘lsak, zamonaviy sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish zarur.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat:

- zamonaviy sanoat tarmoqdari korxonalari faoliyatining muhim yo‘nalishlari doirasida tadqiqotlarni o‘tkazishga e‘tibor qaratish;
- texnologik yo‘l haritalarini yaratish asosida innovatsion faoliyat doirasida kichik va o‘rta korxonalarni jalb qilish;
- sanoat tarmogining fan sig‘imi yuqori bo‘lgan korxonalari innovatsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion faoliyat natijalarini harid qilish va sotish;

- sanoat tarmogining fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarida innovatsion faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirish vositalarini qo'llash;
- sanoat tarmogining fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarida innovatsion faoliyatini joriy etish doirasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish vositalarini qo'llash;
- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar yoki korxonalar tomonidan aniqlanadigan mezonlardan kelib chiqib, foydali bo'lgan innovatsion loyihalarga resurslarni yo'naltirish.

1.3. Korxonalarning inovatsion samaradarlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar

Innovatsiyalar samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy tamoyili bo'lib, undan olingan samara (natija) va harajatlarni solishtirish hisoblanadi. Samara va harajatlar ko'rsatkichlari kam natura ko'rinishida, kam qiymat hajmida ifodalanishi mumkin.

Iqtisodiy samarani aniqlash muammosi va eng afzal innovatsiyalarni tanlash, bir tomondan, uni ishlab chiqish, tayyorlash va realizatsiya qilishga harajatlarga nisbatan foydalanish natijasidagi natijalarning oshishini, ikkinchi tomondan, ushbu holatdagi innovatsiyalar uchun boshqa imkoniyatlarni joriy qilishdan kutilayotgan samara bilan harajatlarni taqqoslashni talab etadi.

Sanoat korxonalarida mavjud mashina va jihozlarni yangisiga almashtirish muddatini qisqarishini ifodalovchi tezlashtirilgan amortizatsiya bilan innovatsiyalar samaradorligini baholash muammosining birdaniga dolzarbligi ortadi.

Harajatlar bilan natijalarni solishtirishga asoslangan innovatsiyalar samaradorligini hisoblash usuli innovatsiyalarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qarorlarni qabul qilishni nazarda tutadi.

Odatda umumiy iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun quyidagi uchta guruh ko'rsatkichlaridan foydalaniladi: integral samara ko'rsatkichlari; innovatsiyalar rentabelligi ko'rsatkichlari; harajatlarni qoplash davrining ko'rsatkichlari.

Har bir guruhdan u yoki bu ko'rsatkichning hisoblash variantlarini keltiramiz:

1. Integral samara (E) diskontlash vositasida muayyan davrga keltirilgan hisobot davriga natijalar va harajatlar farqining hajmini o'zida namoyon etadi. Bunday mezon asosidagi hisob-kitob quyidagi tarzda ifodalanadi:

bu yerda T - hisobot yili; N_t - t - yildagi natija; X_t - t - yilda innovatsiyaga qilingan harajatlar; a_t - diskontlash koeffitsienti.

$$E = \sum_{t=0}^T (N_t - X_t) a_t,$$

2. Innovatsiyalar rentabelligi (R) muayyan davr uchun olingan daromadlarni harajatlarga nisbatini ifodalaydi. Rentabellik quyidagicha aniqlanadi:

$$R_t = \sum_{t=0}^T D_t a_t / \sum_{t=0}^T K_t a_t$$

bu yerda D_t - t - davrdagi daromad; K_t - t - davrdagi innovatsiyalarga qilingan investitsiyalar hajmi.

Innovatsiya rentabelligi integral samara bilan bog'liqdir. Agarda integral samara ijobiy bo'lsa, rentabellik 1 koeffitsientdan yuqori bo'ladi va aksincha. Agarda rentabellik 1 koeffitsientdan kichiq bo'lsa, u holda innovatsion loyiha amaliyotga joriy qilinmaydi.

Muayyan davr uchun innovatsiyadan olinadigan daromad hajmi va zaruriy investitsiyalar hajmi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$D = \sum_{t=0}^T \frac{D_t}{(1+a)^t}, \quad K = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1+a)^t}$$

3. Harajatlarni qoplash davri (T) innovatsiyalar samaradorligini baholashda yetarlicha axborot tarzidagi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Odatda, harajatlarni qoplash muddati qanchalik uzoq bo'lsa, risk ham shunchalik yuqori bo'ladi. Muayyan (qisqa) davrda innovatsiyalar o'zini qoplaydi, belgilangan davrda oldingi innovatsiyalar samarasini qoplash imkoniyatiga ega «qoplovchi innovatsiyalar» deb nomlanuvchi innovatsiyalar paydo bo'lishi mumkin.

Ular qisqa muddatda innovatsiyalarga qilingan harajatlarni qoplaydi. Aynan shu davrda bozor, narxlar, ITTKI va texnologiyalar o'zgarishi mumkin. ITTKI va yangi texnologiyalar xissasi yuqori bo'lgan iqtisodiyot sektorlarida bu samara muhim aniqlik bilan kuzatiladi.

Qachonki xo'jalik faoliyatida risk yuqori bo'lsa, harajatlarni qoplash davri innovatsiyalarga nisbatan qarorlarni qabul qilishda muhim parametr bo'lib hisoblanadi. Modomiki, risk qisqa muddat ichida o'zini-o'zi qoplashni kompensatsiyalashi zarur. Boshqacha aytganda, tezda loyihalarni amalga oshirish kerak. Odatda, bunday loyihalar past fan sig'imkorligiga ega bo'ladi, biroq bu texnologik innovatsiyalarni imkonsiz ekanligini ifodalamaydi. O'zini qoplash davri o'rta yillik pul daromadlari hajmini diskontlashga innovatsiyalarda dastlabki investitsiyalar nisbatini nazarda tutadi.

$$T = K/D,$$

bu yerda K - innovatsiyalarga dastlabki investitsiyalar; D - o'rta yillik pul daromadlarini diskontlash.

Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu ko'rsatkich to'liq bo'lmagan o'lchamda innovatsiyalar samaradorligini baholash uchun mos keladi. Bu shu bilan shartlanganki, innovatsiyalarni yaratish va foydalanishda keng doiradagi agentlarga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalarni yaratishda investorlar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyiha tashkilotlari, innovatsion mahsulotlarni tayyorlovchilar va uni iste'mol qiluvchilar jalb qilinadi.

Bu bilan bir qatorda texnologik innovatsiyalarni realizatsiya qilish o'xshashi bilan solishtirganda yaxshi natijalarga erishish yakuniy maqsad hisoblanadi. Yangi texnologik jarayonlar, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mehnat va ishlab chiqarishni joriy etishdan yillik iqtisodiy samara (S_y) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$C_{ii} = (\partial_{n1} - \partial_{n2}) \cdot M_2$$

bu yerda ∂_{n1} va ∂_{n2} - bazis va texnologiya ko‘magida muvofiq ravishda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish) birligiga qilingan harajatlar salmog‘i; M_2 - hisobot yilida natural birlikda yangi texnologiyalar ko‘magi bilan mahsulot (ish) ishlab chiqarishning yillik hajmi.

Innovatsiyalarga qilingan harajatlar samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi: texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirishga harajatlar; ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilishga umumiy harajatlar; texnologik innovatsiyalarni joriy qilish natijasida chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan tushum; texnologik innovatsiyalarni joriy qilish natijasida chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan foyda; mahsulot realizatsiyasidan tushum; nomoddiy aktivlar qiymati; asosiy fondlar qiymati; sof foyda; o‘rta yillik ishchilar soni.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar omilli indeks tahlilni o‘tkazish uchun o‘zaro bog‘liq ko‘paytuvchi omillar tizimini ko‘rishni nazarda tutadi: realizatsiya hajmi birligiga harajatlar; mahsulot realizatsiyasidan foyda; sof foyda.

Yangiliklarni o‘zlashtirishga harajatlar samaradorligi quyidagicha ifodalanadi: mahsulot tannarxining pasayishi; mehnatning fondlar bilan qurollanganlik darajasini o‘sishi; mehnat unumdorligini o‘sishi; mahsulotlarni realizatsiya qilish hajmi yoki sotish hajmining o‘rtishi; sotish, ishlab chiqarish va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar rentabelligini oshishi.

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshishi hisobiga sof mahsulot o‘shishining xissasi (D_{sm}) quyidagicha bo‘ladi:

$$D_{cm} = \left(1 - \frac{\Delta Y_u}{\Delta Y_{cm}} \right) \cdot 100\%$$

bu yerda ΔY_u - sanoat korxonalarida ishchilar soning o‘shish sur‘ati, %;

ΔY_{cm} - sof mahsulot ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, %.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning innovatsion sektorining rivojlanish samaradorligini baholash uchun maqsadga muvofiq ravishda har qanday iqtisodiy tizim (korxona, yirik korporatsiya, iqtisodiy hudud, makroiqtisodiyot) rivojlanishining innovatsion natijadorligini yagona tizimini o‘lchashni shakllantiruvchi hamda

rivojlanishning innovatsion modeli monitoringi tizimida qo'llashni nazarda tutuvchi quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur: ishlab chiqarish hajmida innovatsiyalar (yangi mahsulotlar) ulushi; innovatsiyalarga harajatlar va ularning jami kapital harajatlar hajmidagi ulushi; asosiy kapitalga investitsiyalar va ularning jami investitsiyalardagi ulushi; fondlar sig'imi va fondlar bilan qurollanish darajasi, iqtisodiy tizimda energiya sig'imi va material sig'im, texnologik samaradorliq ITTKIining jami fan sig'imidagi ulushi, jami investitsiyalar hajmida innovatsiyalarga qilingan sarflar hamda umumiy bandlar sonida ushbu sohada bandlar ulushi; TAT (turn around time - «tezlik bilan bajarishga ulgurin») bozorni yangi tovarlar bilan to'ldirish vaqtigacha sub'ekt tomonidan tushunib yetilgan va o'rnatilgan ehtiyojlarni paydo bo'lishi vaqtida o'lchanadigan innovatsiyaning umumiy ko'rsatkichidir. Mazmuni bo'yicha bu ko'rsatkich raqobatchilarni taqqoslashning eng yaxshi tavsifi bo'lib hisoblanadi; bitta ishchiga to'g'ri keladigan ilg'or texnologiyalar sonini aniqlovchi texnologik intensivlik ko'rsatkichi.

Natijaviy ko'rsatkich sifatida mahsulot tannarxiga texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishning ta'sirini tahlil etish uchun realizatsiya hajmi birligiga harajatlarni qabul qilamiz. Realizatsiya hajmi birligiga yangiliklarni o'zlashtirishga harajatlar ta'siri omilli modelni tahlil etishni nazarda tutadi.

$$\frac{X}{T} = \frac{X_1}{T_1} \times \frac{X}{X_1} \times \frac{T_1}{T}$$

bu yerda X - realizatsiya qilingan mahsulotlarni ishlab chiqarishga harajatlar; T - barcha mahsulotlarni realizatsiya qilishdan tushum; X_1 - innovatsiyalarni o'zlashtirishga harajatlar; T_1 - innovatsiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasidan tushum.

Biroq innovatsiyalar samaradorligini baholashning taqdim etilgan mezonlari innovatsiyalar paydo bo'lishining institutsional shart-sharoitlarini (sarflar) hisobga olmaydi. Shu bilan birga, samaradorlik innovatsiyalarni buyumlashishining tadrijiy samarasini hisobga olmaydi.

Innovatsiyalarning institutsional harajatlari salohiyatini baholash imkoniyati bo'lishi asosidagi funktsiyani kiritamiz. O'zgartirishning institutsional funktsiyasi

ko'magida korxonalar faoliyatini tahlil etish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$Pi(t) = C(t), (1.9)$$

$Pi(t)$ - i - korxonaning institutsional o'zgarishlar salohiyati; $C(t)$ - ekzogen qoidalar va innovatsion korxonaning ichki eskirishini o'zgartirish uchun zarur bo'lgan harajatlar.

Ushbu funksiya nafaqat innovatsiyalarning institutsional komponentlarini, balki bilimni olish hamda bilimning chuqur negiziga ega ko'nikmalarga, boshqacha aytganda, innovatsiyalarni joriy etish va realizatsiya qilish hamda uning transformatsiyasi bo'yicha tajribalarni o'zlashtirishga olib borish zarur bo'lgan xulq-atvor bilan bog'liq muayyan harajatlarni ham hisobga oladi. Innovatsion natijalarning jami sarflari innovatsiyalar paydo bo'lishining transformatsion va transaksion harajatlaridan iborat bo'ladi, innovatsion institutlar rentabelligi esa innovatsiyalarni institutsionallashishning jami harajatlariga korxonaning ishlab chiqarish munosabati teng bo'ladi.

Shunday ekan, bizning fikrimizcha, tashkiliy eskirishni mustaxkamlanishi (konservatsiya qilinishi) ham samarali, ham samarasiz institutlar va progressiv va regressiv innovatsiyalarni ta'minlovchi xulq-atvor qoidalari paydo bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, bir marta ular past samaradorlikka ega yoki umuman samarasiz bo'lgan barqaror innovatsiyalarni paydo qilishi mumkin. Ya'ni yangiliklar hali taklif etilayotgan innovatsiyalar samaradorligi yuqori ekanligini ifodalamaydi.

Innovatsiyalar foydaliligi funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$U(X) = 1 - e^{-kx}$$

bu yerda k - riskning xavfligi koeffitsienti (bu koeffitsient qancha yuqori bo'lsa, agent riski shuncha kam bo'ladi); x - agent kapitalining mo'ljallangan miqdori.

Bunda kapitalning hajmiga bog'liq holda foydalilikning o'zgarishini ko'rsatish mumkin. Riskning xavfliligi koeffitsienti o'sishiga agent kam hollarda tavakkal qilishga tayyor, ya'ni u tavakkal qilmaydi va bu foydalilik darajasi bilan innovatsiyalarga to'g'ri keladi. Risk xatarining o'sishi innovatsiyalarning foydaliroq ekanligiga va ularning yuqori darajada murakkabligiga muvofiq keladi. Kapital qancha

katta bo'lsa, tadbirkor murakkab innovatsiyalarga borishi mumkin. Har bir aniq holatda tarmoq, korxona, murakkab iqtisodiy tizim uchun foydalilik funksiyasi tanlanadi. Kapital hajmida texnologik innovatsiyalar, kapitalning xilma- xilligi, jamg'armalarga bog'liq empirik ma'lumotlar innovatsiyalarni realizatsiya qilishda riskka moyilligi va kapitalning tarkibiga bog'liq holda bunday funksiyalarni ko'rish uchun tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.

Har bir innovatsiya turi bo'yicha foydalilik funksiyasi o'ziga xos bo'lishi mumkin.

Biz korxonalarda innovatsion faollikning ahamiyatini oshib borishini e'tiborga olgan holda, uni baholashni zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu ko'rsatkichlarning indikatorlari bo'lib, raqobatbardoshlik darajasi va barqarorligi, korxonalarining investitsion jozibadorligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi kabilar hisoblanadi.

Shunday ekan, korxonalarda innovatsiyalar samaradorligini baholash tizimi korxona faoliyatining ko'lami, tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat yo'nalishlariga bog'liq bo'lmagan kattalikdagi integral ko'rsatkichlar bazasi asosida tuzilishi kerak. Bunda uning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur. Agarda korxonaning intellektual salohiyatini ko'rib chiqish vaqti bilan birgalikda innovatsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari bilan birgalikda kompleks ko'rib chiqilsa, u holda ishning muayyan davri uchun baholashni taqqoslash korxonaning innovatsion rivojlanishining real dinamikasini ko'rsatadi.

Intellektual salohiyatning tarkibiy elementlari bo'lib, kadrlar tarkibining intellekti (ma'lumot darajasi, eruditsiyasi, tajribasi, ijodiy qobiliyati va ko'nikmalari, malakasi, kasbiy darajasi) hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion sohada bajariladigan ishlarning asosiy yo'nalishlari, ishning maqsadi va asosiy mazmuni 1.4-jadvalda keltirilgan.

Ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat yo‘nalishlari

Innovatsion faoliyatni bajarishdagi ish yo‘nalishlari	Ishning maqsadi	Asosiy mazmuni
Mahsulot tannarxining pasayishi	Raqobatbardoshlik ta‘minlanishi va foydaning o‘shishi	Yangi texnologiyalar va jihozlarni joriy etish; material va energiya sig‘imining pasayishi; mehnat sig‘imining kamayishi.
Boshqaruv tizimini takomillashtirish	Operativlik, shartnoma qoidalariga rioya qilish, korporativ madaniyat	Tashkiliy tarkibning o‘zgarishi, texnologik zanjirni optimallashtirish, kadrlar, tashkiliy tizim sifatini oshishi, mehnatni motivatsiyalash va b.
Tashqi aloqalar kooperatsiyasining kengayishi	Mahsulotlar sifati, harajatlarning pasayishi	Moddiy-texnik ta‘minot, logistika, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish.
Soliqqa tortish tizimini optimallashtirish	Moliyaviy barqarorlik	Investitsiyalar, hisob-kitob siyosati, moliyaviy tizimni optimallashtirish.
Korporativ tarkibning o‘zgarishi	Investitsiyalar olish	Fondlardan foydalanish samaradorligi va investitsion jozibadorlikning oshishi.
Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni modernizatsiyalash	Bozorni tabaqalashtirish	Yangi materiallarni joriy etish, yangicha sifatga erishish.
Yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish va ishlab chiqish	Yangi bozorlarni o‘zlashtirish	Yangi yo‘nalishlar bo‘yicha ITTKIning rejalashtirish va realizatsiya qilish. Yangi ko‘rinishdagi mahsulotlarni qidirish.

Innovatsion faoliyatning bu yo‘nalishi ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiya ko‘rinishlarini konkretlashtiradi. Bu yerda innovatsion faoliyat hajmini nisbatan aniqlash muhim muammo hisoblanadi. Iqtisodiy sinergetikada ma’lum bo‘lgan tamoyilga muvofiq boshqaruv parametrlarining o‘zgarishi tizim holatining o‘zgarishiga va xattoki, tartib-intizomni buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, innovatsiyaning keltirilgan yo‘nalishlari har biri alohida korxona faoliyatida muayyan darajada muvozanatning buzilishiga olib kelishga qodirdir va so‘zsiz, moliyaviy barqarorlik, to‘lovga layo‘qatlilik parametrlarini pasaytiradi.

Ko‘pchilik yo‘nalishlarni amalga oshirish - shubxasiz bunday natijani ta‘minlaydi, ya’ni tizim disfunktsiyasining o‘rib borish ehtimoli jiddiy tarzda oshadi. Bunga bog‘liq holda biz quyidagicha xulosaga keldik, innovatsion faoliyat yohud ilojisizlik holatini kuchaytirishi mumkin, qachonki korxona xech narsa yo‘qotmasa va u innovatsiyaning joriy qilishning katta riskiga olib keladi yoki qachonki korxonaning

tashkiliy-iqtisodiy holati korxonaning tizimli tarzda yaxshilanish holati va uning o'sishini ta'minlovchi innovatsion jarayonlarni asta-sekin rejalashtirish va boshqarishni nazarda tutadi. Bu jihat ishlab chiqarish vositalari (texnologik jihozlar)ni yaratuvchi korxonalar uchun juda ham muhimdir.

Barcha hollarda eski texnologiyalarni joriy etish yangi texnologik jihozlarni yaratish bilan mustahkam bog'langandir. Yaqqol misol bo'lib, maxsus texnologik jihozlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar birgalikda vaqti bilan tarmoqdar talab etadigan elektron mashinasozlik, vakuum, atom mashinasozligi kabilar uchun xizmat qilishi mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning birlashishi ularning samarali realizatsiyasi uchun yangi texnologiyalar va maxsus texnologik jihozlarni yaratishga yo'naltirilgan faol innovatsion faoliyat bo'lib hisoblandi.

Turli mamlakatlarda fan sig'im yuqori texnologiyalarning rivojlanishi barcha mavjud farqlar bilan umumiy salbiy xususiyatga ega: bozor istiqbolini hisobga olgan holda vaqt bo'yicha nobarqarorlik, innovatsiyalarga yuqori harajatlar, oqibatlarini oldindan bilmaslik. Odatda innovatsiyalar yuqori tijorat riski va kutilayotgan natijalarni qayta baholashga olib keladi. Bunday innovatsion bozorning namunaviy misoli bo'lib, maxsus texnologik jihozlar bozori hisoblanadi.

Zamonaviy maxsus texnologik jihozlarni kashfiyotchilari va ishlab chiqaruvchilari uchun ham xuddi shunday muammolar yuzaga keladi:

1. Maxsus texnologik jihozlarni yaratish uchun yuqori texnologiyalar rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini tanlash.

2. Riskni kamaytirish va zarur moliyaviy natijalarga erishish maqsadida korxonalarning innovatsion-investitsion faoliyatini optimal- lashtirish yo'llarini qidirish.

3. Mavjud quvvatlar va intellektual salohiyatga ega ish yuklamasining teng emasligi.

Bizningcha, yuqoridagi muammolarni samarali yechimi quyidagilarga bog'liqdir:

- yuqori texnologiyalarning (aynan fan sig‘im yuqori sohalarda ish bilan ahamiyatli darajada ta‘minlaydi) rivojlanishi darajasi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga bevosita bog‘liqdir;

- pirovardida ularni hal qilinishi yakuniy muvaffaqiyat erishishni ta‘minlaydi yoxud maxsus texnologik jihozlar bozorida raqobatchilar bilan kurashda korxonalarning o‘zlari yutqazadi.

Natijalarni tijoratlashtirishning hozirgi sharoitda keltirilgan muammolarini bartaraf qilishga korxonalarni kelgusidagi rivojlanishini bog‘liqdigi va istiqbolli qarorlarni qabul qilishning to‘g‘riligi juda ham og‘ir bo‘ladi. Korxonalar eng yaxshi natijalarga olib keladigan kafolatlangan rivojlanishning yagona to‘g‘ri yo‘lini tanlashga majburdir.

1.4. Korxonalarning iqtisodiy barqarorligi monitoringi mezonlari.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani echish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi:

- * bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta‘minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

- * iste‘molchilar talabini qondirishga yo‘naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;

- * aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralarini yaratish.

Xo‘jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o‘tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko‘rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o‘zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1.5-jadval).

Korxonada samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda samaradorlikni aniqlashda barcha ko‘rsatkichlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lib o‘rganish qabul qilingan. Birinchi guruhga natural ko‘rsatkichlar kiradi. Ikkinchi guruhga iqtisodiy ko‘rsatkichlar kiradi. Har ikki guruh ko‘rsatkichlardan foydalanish

samaradorlikni aniqroq ko'rsatadi. Shu sababli biz samaradorlikni aniqlashda natural va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq degan fikrdamiz.

1.5-jadval

**Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurlarning
o'zaro aloqasi³⁷**

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklida	
<i>Resurslar</i>	<i>Xarajatlar</i>	<i>Resurslar</i>	<i>xarajatlar</i>
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalar (mehnat qurollari)	Mehnat qurollarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalar
Mehnat predmetlari	Iste'mol, talab, materiallar, yoqilg'i, energiya va hokazo	Aylanma kapital	Sarflangan xom ashyo, material va hokazolar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlari	Muomala fondlari	Qo'shimcha xarajatlar (qiymat)
-	-	Pul mablag'lari	Kredit uchun foiz

³⁷ Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 480 b.

“Korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra korxonalar quyidagi guruxlarga bo‘linadi:

- iqtisodiy barqaror korxona
- iqtisodiy xatarli korxona
- iqtisodiy nochor korxona:
- o‘z to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega;
- o‘z to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lmagan korxonalar.

Yuqorida keltirilgan xo‘jalik samaradorligini baholash usullari va ko‘rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda Iqtisodiy nochorlik qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarining iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo‘llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq});
- xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (K_{xm});
- Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (R_{ix}),
- Aktivlar rentabelligi. (R_a):
- xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti (K_{xq});
- Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:
- Eskirish koeffitsienti (K_{esk})
- moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{fn});

Bu ko‘rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo‘qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig‘imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo‘llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o‘zlarining faoliyat

yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

1. To'lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{tq} = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{A_2}{P_2 - DO}$$

Bu erda:

A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralar, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo), buxgalteriya balansining 770 satri;

DO – uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 490 satri

Agar to'lov qobiliyati koeffitsienti hisobot yilining oxirida 1.25 dan kichik bo'lsa korxona to'lov qobiliyatini yo'qotgan hisoblanadi

2. Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxona egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{xm} = \frac{(P_1 + D_{zk2}) - A_1}{A_2}$$

Bu erda:

A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Dzk2 – uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 570 va 580 satrlaridan hisoblanadi.

Ushbu koeffitsientning minimal qiymati - 0,2.

3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (R_{ix}),

$$P_{ux} = \frac{SF}{MIT} \quad \text{yoki} \quad P_{ux} = \frac{YaF}{MIT}$$

Bu erda: YaF – yalpi foyda;

SF – sof foyda;

MIT – mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

4. Aktivlar rentabelligi. (R_a):

$$P_a = \frac{SF}{JAyk}$$

u erda: SF – sof foyda;

$JAyk$ – korxona jami aktivlarining o'rtacha yillik qiymati.

Agar rentabellik koeffitsientlari nolda kichik bo'lsa korxona zarar bilan ishlayotgan deb hisoblanadi

Agar 0.05 dan kichik bo'lsa past rentabellik deb hisoblanadi.

4. **Xususiy va qarzgga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{xq})** (joriy moliyaviy mustaqillik koeffitsienti) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{xq} = \frac{P_1}{P_2 - DO}$$

Bu erda:

P_1 – xususiy mablag‘lar manbalari (Nizom jamg‘armasi, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

DO– uzoq muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 490 satri

Agar xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining qiymati yil oxirida birdan kichik bo‘lsa, korxonada moliyaviy xavf xatar (risk) mavjudliging alomati bo‘ladi. Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining kamayishi korxonaning moliyaviy xatarini ortishini bildiradi.

6. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:

$$K_{qf} = \frac{Q \text{ haqiqiy}}{Q_{loyiha.} - (Q_{ijara.} + Q_{konserv.})}$$

Q haqiqiy. – haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi;

Qloyiha.- maksimal, loyihaviy ishlab chiqarish quvvati

Qijara. –ijaraga berib yuborilgan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Q konserv. – konservatsiya qilingan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti 0.5 dan yoki tarmoq bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan kichik bo‘lsa, korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish past darajada deb qabul qilinadi.

7. Eskirish koeffitsienti (Kesk) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{esk} = A_{v.es} / A_{v.bq}$$

Bunda: $A_{v.es}$ – asosiy vositalar eskirish summasi;

A_{vbq} – asosiy vositalarninig boshlang‘ishlab chiqarish qiymati;

F1 – 1-shakldagi “Buxgalteriya balans”;

010 va 011-satrlar – balans satrlari.

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsienti 0.5 dan yuqori bo‘lmasligi lozim.

“Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra korxonalarning to‘lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan.

Iqtisodiy xatarli korxona uchun to‘lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti me‘yordan dan kichik bo‘lsa, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bo‘lsa, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti 0,2 dan kichik bo‘lsa korxonalar iqtisodiy xatarli korxona deb topiladi.

Iqtisodiy nochor korxona uchun pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lishi lozim.

* Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, shu bilan birga To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor bo‘lsa, ya‘ni to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) me‘yorda, rentabelli va xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) yuqori bo‘lsa “To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor” deb qabul qilinadi

* Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, uning qiymati eng kam ish xaqining 500 baravaridan yuqori bo‘lsa va Aktivlar rentabelligi. (R_a)past, to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq})kichik, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (K_{xm})past bo‘lsa korxona “To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati yo‘q” deb qabul qilinadi

Korxona nochorligi, demak, xo‘jalik faoliyatining samarasizligi to‘g‘risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi yuqoridagi me‘yorlardan kichik bo‘lgan holda qabul qilinadi.

Xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo‘lib, buning hamma uchun to‘g‘ri keluvchi yagona yo‘li mavjud emas. Har bir korxona bu masalani echishda o‘z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan

kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirish yotadi.

I BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Monografiyada sanoat korxonalari xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishning eng muhim mezon sifatida “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat”ga oid kategoriyalarning mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Innovatsiya - bu yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-harajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste’molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir. Innovatsion faoliyat - innovatsion g‘oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo‘llanilishi va amalga oshirilishini ta’minlovchi faoliyatdir.

2. Innovatsiya ko‘rinishlari, ularni joriy etish bosqichlari va natijalarini realizatsiya qilish doirasida ko‘rsatilgan faoliyat yo‘nalishlari asosida innovatsiyalarni amalga oshirishning muxim tavsifi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra innovatsion jarayonlar turli bosqichlarda amalga oshiriladi va barcha ko‘rinishdagi innovatsiyalar ixtiro sifatida tijorat maqsadida foydalaniladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishlari, hayotiylik davrining tarmoq tuzilishi, o‘zgarishlar darajasi, innovatsion faoliyatni amalga oshirish manbai, ishlab chiqarish jarayonidagi roli, ehtiyojlarni qondirish tavsifi, yangilik darajasi, bozorga chiqish vaqti, vujudga kelish sabablari, qo‘llash predmeti va ko‘lamiga ko‘ra innovatsiyalar tasniflash belgilari bo‘yicha turlarga ajratildi.

3. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, harajatlarni qoplash, yangiliklarni o‘zlashtirishga harajatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosida takomillashtirildi.

II-BOB. SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA KORXONALARNING INOVATSION FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.

2.1. Namangan viloyati sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Innovatsiya uni amalga oshirish bo'yicha jami mehnat jarayonlarini o'zida namoyon etuvchi innovatsion jarayonning natijasi hisoblanadi. O'z navbatida innovatsion faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra, muayyan korxona doirasida turli xildagi innovatsiyalarni amalga oshirishda innovatsion jarayon bosqichlaridagi ishni tashkil etishni ifodalaydi. Kelgusida ishlab chiqarishning texnik darajasi va samaradorligi bugungi kundagi innovatsion faoliyatni amalga oshirish yo'nalishlari va natijadorligi bilan aniqlanadi³⁸. Shuningdek, innovatsion faoliyatni faollashtirish korxonalarning egallab turgan bozoridagi barqaror holati va rivojlanish dinamikasini ta'minlashning shart-sharoiti hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish korxonaning innovatsion faoliyatini tizimli tahlilisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu jarayonda muhim jihat bo'lib, korxona faoliyatida ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish va uzluksiz rivojlanishni ta'minlovchi yuqori samarali mexanizmni yaratishga qodir, innovatsion faollikni oshirish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan usullar hisoblanadi.

Shu o'rinda Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga to'xtalamiz.

Viloyatda 2000 yildan buyon shu vaqtgacha (yani 2005, 2010, 2020, 2021, 2022, 2023 yillarda) sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari muntazam o'sib borgan.

³⁸ Иванов В.В. Инновационная политика при переходе к экономике знаний // Экономическая наука современной России, № 1, 2006.

2.1-jadval

**Sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari
(Namangan viloyati)**

	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	67,8	330,5	581,8	2861,8	11011,9	14695,1	18120,5	20826,5
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	126,1	114,0	122,1	114,4	115,3	118,2	109,1	107,2

Viloyatda 2020-2023 yillar davomida sanoat mahsuloti hajmi keskin o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Ya'ni 2020 yilda 11011,9 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib borgan va 2023 yilga kelib 20826,5 mlrd.so'mga yetgan. Bunda albatta, ishlab chiqaradigan sanoatning o'rni kattadir: ushbu sohada 2000 yilda 67,8 mlrd.so'm, 2023 yilda esa 20826,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsuloti yaratilgan (qariyb 307 marta o'sgan).

2.2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(mlrd. so'm)**

	2020	2021	2022	2023
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	11011,9	14695,1	18120,5	20826,5
Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	46,8	79,6	55,6	98,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	9265,7	12299,5	14915,3	16951,8
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2216,4	2462,6	2910,8	2968,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	496,9	571,6	534,3	772,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2495,3	4031,0	5324,4	5360,3
Kiyim ishlab chiqarish	1459,6	1427,5	1688,8	2419,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	162,9	239,1	225,4	272,9
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	46,8	160,7	131,9	57,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	52,1	94,4	122,9	156,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,5	4,2	8,4	10,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	8,3	11,8	14,2	14,8
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	192,8	226,8	655,0	652,6
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari	239,2	177,3	152,3	238,2

	2020	2021	2022	2023
ishlab chiqarish				
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	165,0	217,7	315,1	484,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	509,7	898,3	703,4	1178,5
Metallurgiya sanoati	86,3	171,7	162,3	111,1
Mashina va uskunalardna tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	353,8	514,9	701,5	879,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	5,3	7,3	7,4	13,1
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	325,0	307,9	528,7	662,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	60,5	130,1	133,4	87,6
Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	18,5	26,6	21,5	26,1
Boshqa transport uchkunali ishlab chiqarish	16,3	10,3	0,0	2,4
Mebel ishlab chiqarish	126,9	280,2	265,9	203,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	215,5	307,6	297,6	363,2
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	8,4	19,8	10,2	15,9
Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1605,0	2162,2	2955,5	3553,4
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilitatsiya qilish	94,5	153,8	194,1	222,6

Ishlab chiqarish sanoatining tarkibiga e'tibor qaratganimizda esa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (25,7 foiz), Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (17 foiz), oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (14,2 foiz) va kiyim ishlab chiqarish (11,6 foiz) tarmoqlari yetakchilik qilayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Boshqa tarmoqlarda esa bu borada juda past natijalarga erishilgan.

2.3-jadval

Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi (% da)

	2020	2021	2022	2023
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	100	100
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	23,9	20,0	19,5	14,3
Ichimliklar ishlab chiqarish	5,4	4,6	3,6	3,7
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	26,9	32,8	35,7	25,7
Kiyim ishlab chiqarish	15,8	11,6	11,3	11,6
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,8	1,9	1,5	1,3
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,5	1,3	0,9	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab	0,6	0,8	0,8	0,8

	2020	2021	2022	2023
chiqarish				
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,0	0,0	0,1	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	2,1	1,8	4,4	3,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,6	1,4	1,0	1,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1,8	1,8	2,1	2,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	5,5	7,3	4,7	5,7
Metallurgiya sanoati	0,9	1,4	1,1	0,5
Mashina va uskunalardna tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	3,8	4,2	4,7	4,2
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,0	0,1
elektr uskunalar ishlab chiqarish	3,5	2,5	3,5	3,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	0,7	1,1	0,9	0,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	0,2	0,2	0,1	0,1
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,2	0,1	0,0	0,0
Mebel ishlab chiqarish	1,4	2,3	1,8	1,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	2,3	2,5	2,0	1,7
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	0,1	0,2	0,1	0,1
Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	14,6	14,7	16,3	17,1
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	0,9	1,0	1,1	1,1

2.4-jadval

Viloyat ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi, %

	Namangan viloyati	Mingbuloq	Kosonsoy	Namangan	Norin	Pop	To'raqo'rg'on	Uychi	Uchqo'rg'on	Chortoq	Chust	Yangiqo'rg'on	Namangan sh
Ishlab chiqaradigan sanoat	100,0	5,3	6,4	5,1	1,7	2,9	9,0	6,4	5,4	2,9	12,1	1,4	41,4
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	2,0	2,9	4,8	1,9	6,1	2,4	6,4	15,3	4,8	3,6	3,6	46,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,0	13,5	1,4	0,0	0,0	0,7	0,1	29,1	0,0	0,0	55,1

Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	14,7	16,4	5,8	2,9	2,3	12,8	6,7	6,6	0,1	0,1	0,4	31,3
Kiyim ishlab chiqarish	100,0	1,1	1,6	5,1	1,3	2,2	27,0	2,5	0,8	2,0	16,3	2,1	38,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	100,0	1,5	4,1	3,2	1,1	1,2	1,3	46,0	0,9	1,0	2,5	1,5	35,7
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	100,0	3,7	1,9	2,4	2,0	1,4	2,5	6,0	1,2	1,6	8,5	1,7	67,1
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,6	5,2	0,2	0,6	0,0	0,1	24,8	0,0	1,6	0,0	66,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	100,0	0,0	0,0	24,4	0,0	0,0	0,1	11,7	0,0	0,0	0,0	0,0	63,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,0	1,4	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	98,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	0,2	0,2	9,9	0,0	0,0	4,5	20,7	1,4	0,1	51,6	0,0	11,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	100,0	0,0	1,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0	97,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	100,0	0,4	3,3	0,3	0,3	0,1	0,4	13,0	0,8	6,2	0,7	1,7	72,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	100,0	0,3	0,6	0,3	0,2	8,2	5,5	8,1	0,4	1,0	58,2	1,3	15,7
Metallurgiya	100,0	0,0	1,3	0,3	0,0	0,0	8,7	0,9	0,0	0,2	0,6	0,2	87,8

sanoati													
Mashina va uskunalardna tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	100,0	0,3	0,2	0,3	0,3	0,2	0,9	2,7	0,2	0,3	49,0	0,3	45,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	100,0	0,0	17,7	69,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	13,1
elektr uskunalar ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,0	7,6	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	92,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	100,0	0,1	2,8	26,1	0,8	0,0	6,2	12,7	0,0	0,0	1,8	4,7	44,9
Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,0	0,0	10,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	56,3	0,0	33,2
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	100,0	0,0	0,0	0,0	17,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	82,4
Mebel ishlab chiqarish	100,0	1,7	2,8	2,4	1,7	5,0	1,8	5,0	1,4	3,4	6,9	3,0	64,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	100,0	3,4	8,1	3,6	3,8	4,6	4,2	4,8	3,2	3,4	5,6	6,0	49,1
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	100,0	1,0	0,7	14,7	0,6	4,3	3,6	1,8	0,3	4,5	1,7	0,4	66,3

Viloyat ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushini tahlil qilganimizda, eng katta ulush Namangan shahriga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatning boshqa tumanlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda deyarli hech qanday muvaffaqiyatlarga erishilmayapti. Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda faqatgina Uchqo'rg'on tumani (15,3 foiz), Ichimliklar ishlab chiqarishda Chortoq tumani (29,1 foiz) va Namangan tumani (13,5 foiz), to'qimachilik

mahsulotlari ishlab chiqarishda Kosonsoy (16,4 foiz), Mingbuloq (14,7 foiz) va To'raqo'rg'on (12,8 foiz) tumanlarida, Kiyim ishlab chiqarish To'raqo'rg'on (27,0 foiz) va Chust (16,3 foiz) tumanlarida, Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish Uychi (46,0 foiz), Namangan shahri (35,7 foiz), yani Uychi tumanidan past, Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish Chust (8,5 foiz) va Uychi (6,0 foiz) tumanlarida, Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish To'raqo'rg'on tumani (24,8 foiz), Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish Namangan tumani (24,4 foiz), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda Chust (51,6 foiz) va Uychi tumanlarida (20,7 foiz) va boshqa sohalar bo'yicha ayrim tumanlarda sezilarli natijalarga erishilgan. Ya'ni viloyat mintaqalarida sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishda tarqoqlik mavjud.



2.5-jadval

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlar ulushi

(jamiga nisbatan foizda)

	2020	2021	2022	2023
Namangan viloyati	100	100	100	100
Namangan sh	39,5	41,3	38,9	38,9
tumanlar:				
Mingbuloq	5,0	4,2	4,1	4,4
Kosonsoy	2,9	4,0	5,3	5,3
Namangan	9,4	6,5	5,9	4,4
Norin	2,9	3,0	1,3	1,4
Pop	4,6	3,0	3,0	2,7
To'raqo'rg'on	14,0	17,1	18,6	19,4
Uychi	5,8	6,1	5,7	5,3
Uchqo'rg'on	7,1	5,7	5,3	4,5
Chortoq	1,7	1,9	2,2	2,4
Chust	5,3	5,5	8,2	10,1
Yangiqo'rg'on	1,8	1,7	1,5	1,2

Umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,9 % ulushini), To'raqo'rg'on (19,4 %), Chust (10,1 %), Kosonsoy va Uychi tumanlari (5,3 %), Uchqo'rg'on tumani (4,5 %), Mingbuloq va Namangan tumanlari (4,4 %), Pop (2,7 %) Chortoq (2,4 %), Norin (1,4 %), Yangiqo'rg'on (1,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2020 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti*(ming so'm)***2023 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti***(ming so'm)*

2020 yilda, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 6 861,6 ming so'm, Namangan shahrida 6 620,7 ming so'm, Namangan tumanida 5 196,7 ming so'm, Uchqo'rg'on tumanida 4 851,4 ming so'm va Mingbuloq tumanlarida 3 974,9 ming

so‘m ming so‘mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda.

2023 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hududlarga nisbatan ko‘rilganda, To‘raqo‘rg‘on tumanida 17637,1 ming so‘m, Namangan shahrida 11291,6 ming so‘m, Chust tumanida 6616,9 ming so‘m, Namangan tumanida 6105,2 ming so‘m, Mingbuloq tumanlarida 5598,7 ming so‘m, Kosonsoy tumanlarida 5451,2 ming so‘m, Uychi tumanlarida 5233,2 ming so‘m, Uchqo‘rg‘on tumanlarida 4557,2 ming so‘mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda.

2.6-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilga nisbatan foizda)

	2020	2021	2022	2023
Namangan viloyati	113,4	118,2	109,1	107,2
Namangan sh	100,6	112,8	103,4	105,8
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	103,8	108,0	122,8	101,2
Kosonsoy	100,4	122,6	122,5	109,1
Namangan	102,5	98,2	105,5	101,0
Norin	111,0	111,5	102,7	104,1
Pop	106,8	95,8	107,6	103,2
To'raqo'rg'on	104,0	124,8	117,6	104,1
Uychi	98,4	112,5	102,6	105,1
Uchqo'rg'on	114,5	100,5	98,8	92,8
Chortoq	106,8	116,8	110,8	108,3
Chust	117,5	118,6	120,4	108,7
Yangiqo'rg'on	114,4	112,4	106,1	102,5

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘shish sur‘atlari Kosonsoy tumanida (2022 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,1 %), Chust (108,7 %), Chortoq (108,3 %), Namangan shahrida (105,8 %), Uychi (105,1 %), Norin va To'raqo'rg'on (104,1 %), Pop (103,2 %), Yangiqo'rg'on (102,5 %), Mingbuloq (101,2 %), Namangan (101,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uchqo'rg'on (92,8 %) tumanida o‘shishning past sur‘atlari kuzatildi.

Qayd etish mumkinki, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar intensiv rivojlanish yo‘lidan borib, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarish orqali o‘z iqtisodiyotlarini tez sur‘atlar bilan barqaror taraqqiy ettirishga erishmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlarni olib borayotgan O‘zbekiston uchun ham ushbu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda maxsus davlat boshqaruvi organi — Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi, ilm-fan va innovatsiya ishlari bo‘yicha davlat dasturlari zamonaviy tamoyillar asosida yangidan ishlab chiqilib, ular doirasida bir qator muhim ilmiy-texnologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunday faoliyat uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar esa yildan-yilga muntazam oshib bormoqda. Innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyotda amaliy qo‘llashga yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega, malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Innovatsiya sohasidagi halqaro hamkorlikni kengaytirib, bir qator rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro manfaatli qo‘shma dastur va loyihalar ro‘yobga chiqarilmoqda.

2.2. Sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish shart-sharoitlari va omillari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni,³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmonini amalga oshirish,⁴⁰ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholi farovonligini tubdan oshirish va turmush sifatini yaxshilash, jamiyat va davlatni har tomonlama hamda jadal rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olindi⁴¹.

³⁹ <https://lex.uz/docs/-5030957>

⁴⁰ <https://lex.uz/ru/docs/-6102466>

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasi "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha xarakatlar strategiyasi" //Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>

Boshqacha qilib aytganda, biz O‘zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo‘lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim.

Qo‘yilgan maqsadlarga respublikamizni rivojlanishning innovatsion modeliga to‘liq o‘tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag‘batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi.

Mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag‘batlantirishning institutsional va tashkiliy- huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017 yil 29 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida» gi PF-5264-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni keng joriy etish borasida ma‘muriy islohotlar kontseptsiyasini amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha muhim qadam sifatida qarash mumkin.

Farmon bilan strategik rejalashtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg‘or texnologiyalarni faol joriy etish kabi mamlakat innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari belgilandi.

Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi innovatsion va ilmiy-texnikaviy rivojlanish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan. Yangi idora innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va

texnologiyalarni ro'yobga chiqarish uchun byudjet mablag'laridan oqilona foydalangan holda mavjud resurs va mablag'larning safarbar etilishini ta'minlaydi.

Keyingi yillarda Namangan viloyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faollikni baholash bo'yicha korxonalarning statistik hisobotlari hamda ekspress baholash asosida innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari tahlil etildi.

Tahliliy ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, respublikamizda innovatsion faoliyatning institutsional asoslarini takomillashtirish va uning rag'batlantiruvchi tizimini rivojlantirish natijasida korxonalarda innovatsion faollikni oshirishga motivatsiya ham o'zgarmoqda (2.7-jadval).

2.7-jadval

Namangan viloyati sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari, %

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2010	2015	2018	2019	2020
1.	Korxonaning innovatsion faolligi (hisobot davrida texnologik, tashkiliy, marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarning tekshiruv o'tkazilgan korxonalarni umumiy sonidagi solishtirma salmogi)	8,4	8,5	8,6	9,1	9,5
2.	Xisobot davrida texnologik innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarning tekshiruv o'tkazilgan korxonalarni umumiy sonidagi solishtirma salmogi	6,5	6,8	6,8	7,5	7,8
3.	Innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning jami tovarlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardagi solishtirma salmogi	4,1	4,5	4,6	5,8	6,3
4.	Texnologik innovatsiyalarga qilingan harajatlarni jami tovarlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardagi solishtirma salmog'i	1,0	1,2	1,2	1,5	1,9
5.	Xisobot davrida tashkiliy innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarning tekshiruv o'tkazilgan korxonalarni umumiy sonidagi solishtirma salmogi	1,1	1,2	1,3	1,7	1,9
6.	Xisobot davrida marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarning tekshiruv o'tkazilgan korxonalar umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	2,2	2,3	2,3	2,5	2,5

Innovatsion infratuzilma qismlari ichida ilmiy-texnika yutuqlarini o‘zlashtirishga ixtisoslashgan innovatsion korxonalar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun innovatsiyalarni ommaviy tatbiq qilish xaqida gap borganda, shunday korxonalar tarmoqlarini paydo bo‘lishiga ko‘maklashadigan innovatsion siyosatni amalga oshirishni talab qiladi.

Lekin korxonalar innovatsion faoliyatda yutuqlarga erishishi, ayniqsa, jahon miqyosida yutuqlarga erishishi uchun u bir qator mezonlarga mos kelishi kerak. Innovatsion korxonalarda ilmiy texnikaning ilg‘or yutuqlari, tatbiq qilish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassis va olimlari, shu bilan birga zamonaviy, ilmiy, tajriba, muxandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi bo‘lishi kerak.

3-diagramma

2019-2020 yillarda Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



2020 yilda viloyat korxonalari tomonidan 10950,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019 yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 115,8 % ni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘shining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 7,6 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 83,9 % i), hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 2,0 martaga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,8 % i) o‘shishi kuzatildi. Shuningdek, suv bilan

ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 13,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,8 % i), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -17,5 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,5 %) pasayishi kuzatildi.

Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da ko'rganimizda, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 83,9 (2019 yilda – 90,7 % ni), Elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 14,8 % ni (7,6 %) tashkil etgan.

4-diagramma

2022-2023 yillarda Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



2023 yilda Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da ko'rganimizda, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 81,4 (2022 yilda – 82,0 % ni), Elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 17,0 % ni (16,5 %) tashkil etdi.

**2019-2020 yillarda ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

	2019	2020	Farqi (+,-)
Paxta linti, ming tonna	37,0	48,3	11,3
Aroq - ming litr 100 % spirt	456,0	318,0	-138,0
Konyak spirti - ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	1 308,0	886,3	-421,7
Un, ming tonna	112,2	128,9	16,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	13,9	17,0	3,1


2020 yil ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini tahlil qilganimizda, ko'rish mumkinki, aroq, konyak spirti va vino mahsulotlari ishlab chiqarishda pasayish kuzatilgan. Paxta linti, un va o'simlik yog'i ishlab chiqarishda esa birmuncha o'sish ta'minlangan.

**2022-2023 yillarda ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

	2022	2023	Farqi (+,-)
Paxta linti, ming tonna	3,1	1,9	-1,2
Chigit - ming tonna	59,2	47,9	-11,3
Paxta tolasi, ming tonna	28,2	36,0	7,8
Omuxta yem, ming tonna	54,8	21,3	-33,5
Aroq, ming litr	0,0	0,0	0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	11,3	10,2	-1,1


2023 yilda esa ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini tahlil qilganimizda, ko'rish mumkinki, aroq umuman ishlab chiqarilmagan. Paxta linti, chigit, omuxta yem va o'simlik yog'i ishlab chiqarishda pasayish kuzatilgan. Paxta tolasi esa ishlab chiqarishda o'sish ta'minlangan.

**2020 yilda ishlab chiqarishning texnologik
tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



2020 yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,6 % ni (2019 yilda - 3,5 % ni), o'rta-yuqori texnologiyalini ulushi 6,9 % ni (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 12,4 % ni (12,4 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 78,1 % ni (79,9 %) tashkil etgan.


**2023 yilda ishlab chiqarishning texnologik
tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



2023 yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2022 yilda - 1,1 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalini ulushi 8,4 % ni (9,0 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 15,8 % ni (12,8 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 74,3 % ni (77,1 %) tashkil etdi.


7-diagramma

**2020 yilda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan
sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



2020 yil xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 815,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 25,7 % ni tashkil etgan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2023 yil yanvar-dekabr holatiga 18,8 % ni tashkil etdi.

2.9-jadval

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019 yil	2020 yil
Loyihalar soni, birlik	20	53
Korxonalar soni, birlik	10	34
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	209,2	315,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH doll.	800,0	2 059,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	78	520

2020 yil viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Mazkur dasturga kiritilgan 53 ta loyiha bo'yicha 315,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgandi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2022	2023
Loyihalar soni, birlik	131	91
Korxonalar soni, birlik	72	73
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 514,0	2107,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH doll.	19,3	12,2
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	1 246	758

2023 yilda Namangan viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi doirasida 91 ta loyiha bo'yicha 2107,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

9-diagramma


**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari soni, birlikda**



2020 yil viloyatda 6577 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 2595 tasi Namangan shahriga, 522 tasi Uychi, 495 tasi Chust, 476 tasi Namangan, 476 tasi Kosonsoy, 428 tasi To'raqo'rg'on, 302 tasi Yangiqo'rg'on, 291 tasi Norin, 288 tasi Uchqo'rg'on, 269 tasi Chortoq, 257 tasi Pop hamda 178 tasi Mingbuloq tumanlariga to'g'ri keladi. 2020 yilda viloyatda 1 524 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 54,7 % Namangan shahri, Namangan tumani, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri kelgandi.

10-diagramma

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



Hozirgi kunda viloyatimizda 4929 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1784 tasi Namangan shahriga, 421 tasi Chust, 391 tasi Namangan, 377 tasi Kosonsoy, 349 tasi To'raqo'rg'on, 328 tasi Uychi, 262 tasi Uchqo'rg'on, 235 tasi Pop, 234 tasi Norin, 225 tasi Yangiqo'rg'on, 202 tasi Chortoq hamda 121 tasi Mingbuloq tumanlariga to'g'ri keladi.

2023 yilda viloyatda 852 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 219 tasi Namangan shahri, 83 tasi To'raqo'rg'on, 77 tasi Chust, 71 tasi Namangan, 64 tasi Uchqo'rg'on va Pop, 57 tasi Kosonsoy, 54 tasi Uychi va Norin, 47 tasi Mingbuloq, 36 tasi Yangiqo'rg'on hamda 26 tasi Chortoq tumanlariga to'g'ri keldi.

Albatta istiqlol yillarida mamlakatimizda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlangani holda neft va gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik sanoati, qurilish materiallari va farmatsevtika sanoati kabi yangi-yangi sanoat tarmoqlari shakllangani hamda rivojlangani holda bugungi kunda jahon bozoriga "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" tamg'asi ostida minglab sanoat tovarlari taklif qilinmoqda.

Ammo, korxona innovatsion salohiyat darajasi muayyan dinamikada bo'lib, undagi o'zgarishlar nafaqat o'sishga, balki kamayishga ham olib kelishi mumkin. Demak, innovatsion salohiyat dinamikasi darajasi, unga turli omillarning ta'siri natijasida vujudga keladi. Demak, sanoat korxonasining innovatsion imkoniyatlarini to'liq va ob'ektiv baholash vazifasi, birinchidan, innovatsion salohiyatni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tarkibini aniqlash, ikkinchidan esa, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir etish darajasini o'lchashdan tashkil topadi.

2.3. "Noto'qimachi" aksiyadorlik jamiyatida inovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlili

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat sub'ektlari o'rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga

oshirish bilan bog‘liq munosabatlar tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiy jarayonlardagi tub o‘zgarishlar (bozorning globallashuvi, axborot texnologiyalardan keng foydalanish, rivojlanishni boshqarish, biznesni tashkil etishdagi tarkibiy o‘zgarishlar) turli korxonalarda islohotlar ko‘lamini o‘shirishga sabab bo‘lmoqda.

Iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o‘tgan asrdagi sekinlik bilan kechishi uni to‘liq sinab ko‘rishga imkon bermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo‘ldi: innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanmoqda; o‘zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga davogarlik qilmoqda va korxonaning strategik rivojlanishi uchun zarur shartidir. Adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasining turli xil ta’riflari mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha “yangilik” tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o‘ziga xos farqlariga e’tibor qaratish lozim.

Shu o‘rinda Namangan viloyatidagi “Noto‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatida inovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilishni lozim topdik.

2020 yillarda korxona yiliga 4000-4500 million so‘m miqdorida yalpi mahsulot ishlab chiqargan edi. Aksiyadorlik jamiyati yiliga 8254 ming pogon metr noto‘qima gazlamalar, 1496 ming pogon metr vatin, 13,7 ming pogon metr sun‘iy mo‘yna, 1094 ming so‘mlik halq iste’moli buyumlari ishlab chiqarishga erishgan. Korxonada ishlovchilarning mehnat unumdorligi 4736 ming so‘mga teng bo‘lib, yanada orttirishga harakat qilinmoqda. 2020 yil eni 184 sm bo‘lgan 911246 artikuldagi noto‘qima mato, eni 100 sm ga teng bo‘lgan Volteks hamda Kunit artikulidagi matolar ishlab chiqargan.

Korxonada uchta ishlab chiqarish mavjud bo‘lib, ularning ikkitasida noto‘qima matolar va bittasida sun‘iy mo‘yna ishlab chiqarilmoqda.

2020 yili mamlakat yengil sanoat tarmog‘ida “Noto‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatining ulushi 5,2% ga tengdir. Demak, yengil sanoatning rivojlanishida ushbu korxona 5,2 foiz xissaga ega. “Noto‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatida foydalanilayotgan dastgohlar va asbob uskunalarning katta qismi uzoq muddatdan beri

ishlab kelayotgan dastgohlardir. Ulardan oxirgi besh yil ichida birontasi xam yangilangani yo‘q, 10 yilgacha bo‘lgan muddatda 3 % qolgan barcha dastgohlar 20 yildan ortik xizmat muddatiga ega. Korxonada mavjud dastgohlarning ishlab chiqarish quvvati yiliga 3800-4000 tonna paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega.

“Noto‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatida asosan to‘qima mato ishlab chiqarishga moslashgan ACHV rusumli tukuv agregatlari o‘rnatilgan. Barcha dastgoh va jihozlar 1980-1986 yilda Rossiyada ishlab chiqarilgan dastgohlardir.

2.11-jadval

2020 yil “Noto‘qimachi” AJ da o‘rnatilgan dastgohlar to‘g‘risida ma’lumot

T.r	Dastgohlar nomi	Rusumi	Miqdori	Ishlab chiqarilgan yili	Boshlangich narxi
1	Tarab-tikish agregati	ACHV-5	1	1990	35400
		ACHV-4	1	1989	21346
		ACHV-3	30	1979	568080
		ACHV-2	12	1980	139236
		ACHV-2	2	1980	54911
		ACHV-180-2	8	1980	149952
2	Sifat nazorat mashinasi	BSM-170	8	1967	254463
3	Davralash mashinasi	Favorit	6	1986	74670
		Tekstima	6	1986	24860
4	O‘rash mashinasi	MT-2	1	1987	48867
5	Savash mashinasi	T-16	2	1986	42000
		MTM-240	2	1993	38910
		MT	3	1986	29140
6	Titib-tozalash mashinasi	AV-5V	3	1985	23820
		SHS-140-3	1	1983	7920
		SHS-140-3	2	1992	680000
7	Ta‘minlovchi-aralashtiruvchi mashina	P-5	2	1984	7026
		AG-37	3	1985	4137
8	Og‘ma tozalash mashinasi	ON-6-3	1	1984	5668
9	Vertikal titish mashinasi	VR-1	1	1964	1396
10	Pnevmatik Taks imlovchi	RVP-2	2	1974	10750
11	Taqsimlovchi baraban	RVCH-1	1	1968	4631
12	Chiqindi tozalash mashinasi	UO-1	1	1973	1714
13	Chang yutgich	PVO	1	1971	1714
14	Vatin yutgich	MVP	2	1993	90210
15	Tarash mashinasi	CHVPO-600	3	1986	118621
16	Bunker	BCHM	4	1986	77600
17	Ta‘minlovchi mashinasi	P-1	4	1992	1700000
		P-5	1		3425

IZOH: Jadval «Noto‘qimachi» AJ ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Korxonada 1996 yili sun'iy mo'yna ishlab chiqarish sexi ishga tushirilgan, undagi asosiy dastgohlar Germaniyaning "Tekstima" firmasidan sotib olingan. Korxonada bir ishlab chiqarish sexida yiliga 3500 ming pogon metr gazlama mato, 3300 pogon metr vatin matosi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 59 ta tukuv dastgohlari o'rnatilgan. Ushbu bo'limda 911246 artikuldagi mato, halqasimon mato va vatin matosi ishlab chiqariladi. Bu bo'limdagi dastgohlarning yoshi taxminan 25 da. 2- ishlab chiqarish sexida yiliga taxminan 6500 ming pogon metr gazlama ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 70 ta tukuv dastgohlari o'rnatilgan.

Bo'limda 911246, 911244 artikulidagi matolar ishlab chiqariladi. Bu bo'limda o'rnatilgan dastgohlar ham o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan, ammo ularning unumdorlik darajalari birinchi ishlab chiqarish sexidan yuqoriroqdir. Ularning ishlab chiqarilgan sanasi ham birinchi ishlab chiqarishdagilarga qaraganda yaqinroqdir. (2.12-jadval)

2.12-jadval

**“Noto‘qimachi” AJ ning 2- ishlab chiqarish sexidagi dastgohlar to‘g‘risida
ma'lumot**

T.r	Dastgohlar nomi	Rusumi	Miqdori	Ishlab chiqarilgan yili	Boshlangich narxi
1	Tarab-tikish agregati	ACHV-4	59	1986	1789800
		ACHV-3	7	1986	70490
		ACHV-2	3	1986	56232
		ACHV-5	1	1990	35400
2	Bunker	BCHM	70	1986	120332
3	Titib ulash agregati	U-52	2	1986	11044
4	Momiq va chang tozalagich	NPP-2	1	1985	2446
5	Davralash mashinasi	Tekstima	10	1986	136895
6	Savash mashinasi	MT-2	1	1986	12180
7	Titish mashinasi	RKU-2U	32	1985	286528
8	Yo'tish bunker	DBU	16	1985	71155
9	Aralashtirish-namlash mashinasi	PZU-6	4	1985	10720
10	Aralashtirish mashinasi	MSP-8	6	1985	44207
11	Qiya tozalagich	ON-6-4M	8	1985	44207
12	Gorizental tozalagich	40-U	4	1985	7908
13	Tola taqsimlagich	RVP-2	4	1985	21656
14	Savash mashinasi	MTB	8	1986	85880
15	Chiqindi mashinasi	UO-1	1	1986	146634

16	Aralashtiruvchi mashina	SN-ZU	8	1986	7576
17	Doplat mashinasi	MNSH-48	2	1986	2260
18	Chiqindilar uchun press	PU-1	1	1986	2160
19	Kondensor	KB-3	3	1986	2901
20	Press	ARO-1	2	1986	22964
21	O'lchash va nazorat mashinasi	MKM	4	1986	20716
22	Filtr	FSBM	57	1986	57798

IZOH: Jadval "Noto'qimachi" AJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Korxonadagi uchinchi bo'lim-bu sun'iy mo'yna bo'limidir. Bu bo'limda yiliga 1000 pogon metr mato ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 4 ta tukuv dastgohlari o'rnatilgan. Bo'limda sun'iy mo'yna matosi (volteks, kunit) ishlab chiqariladi. O'rnatilgan dastgohlarning jismoniy holati yaxshi darajada. Ularning ishlab chiqarish quvvati yuqori bo'lib, bugungi kun talablariga to'la javob beradi, hamda ularda sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mavjuddir.

Korxonada bugungi kunda juda katta ishlab chiqarish quvvati bo'lib, ulardan foydalanish darajasi past bo'lib qolmoqda, ya'ni bugungi kunda korxonada quvvatlardan foydalanish darajasi 65-70% ni tashkil qilmoqda. O'rnatilgan dastgohlarning ba'zi birlari bo'sh turib qolmoqda.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sabablari aniqlandi.

Ular qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni bozor talablaridan ortda qolishi. Yuqori unumdorlikda ishlaydigan sifatli mahsulot hisoblangan sun'iy mo'yna va vatin matolariga yetarli darajada talab yo'qligi tufayli ularni ishlab chiqarish vaqtincha to'xtaldi. Shu bilan birgalikda korxona mahsulotining narxini yuqorilab ketishi ham talabga ta'sir ko'rsatdi.

2. Korxonada ishlab chiqariladigan haridorgir mahsulotlar uchun zarur bo'lgan xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligidir. Noto'qima mato uchun zarur bo'lgan paxta tolasi bilan ta'minlashda uzilishlar bo'lmoqda. Sun'iy mo'yna mahsulotini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan volteks va kunit xom ashyosini faqatgina Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi korxonalarda mavjudligi bois, ularni keltirishda ma'lum qiyinchiliklar sodir bo'lmoqda. Texnik jihozlar uchun zarur

bo'lgan chidamli butlovchi qismlarni topishda qiyinchiliklar mavjud. Chunki, bu qismlarning ko'pchiligi Rossiyada ishlab chiqariladi. Ularni keltirish qo'shimcha mablag' talab qiladi.

3. Korxonada foydalaniladigan dastgohlarning ish unumdorligi umuman past. Chunki, ularning aksariyat qismi jismoniy jihatdan eskidir.

4. Malakali xodimlarning yetishmasligi. Bugungi kunda korxonada ishlayotgan xodimlarning 15-20 % oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lsa, 25-30% o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislardir.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 2.13- jadvalda keltirilgan.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi pasayib bormoqda va hozirgi vaqtda 78.8 foizni tashkil qilmoqda. Buning sabablaridan biri sun'iy mo'ynaning ishlab chiqarilishdan vaqtincha to'htatilganligidir.

2.13-jadval.

2020 yilda “Noto‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi.

T. r	Korxona bo‘limlari	O‘lchov birligi	O‘rnatilgan quvvati	Reja	Haqiqatda	Quvvatdan foydalanish
1	1-ishlab chiqarish sexi	kv m	6486	6450	5593	86,7
2	Vatin sexi	kv m	5144	4515	742	16,4
3	2-ishlab chiqarish sexi	kv m	11591	11505	9214	80,1
4	Sun'iy mo'yna	kv m	833	833	-	-
	Jami	kv m	18910	18788	14807	78,8

IZOH: Jadval korxona ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu holatlarning hamda korxonadagi texnologik resurslardan samarasiz foydalanish, xom ashyo yetishmovchiligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning iste'molchi talablariga yetarli darajada javob bermaganligi oqibatida yuz bermoqda. Iqtisodiy resurslardan foydalanishda ham kamchiliklar mavjud. Bunda ushbu resurslarni ta'minlab beruvchi tashkilotlar bilan munosabatlarga e'tibor berish lozim. O'tgan yillar davomida “Noto‘qimachi” AJ o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan resurslarni “O‘zbekpaxtasanoat”, “O‘zbekengilsanoat” DAK korxonalari,

“O‘zbekenergo” DAK, “Namangangazta’minot” boshqarmasi, “Namangan suvoqava” ishlab chiqarish korxonasi, “O‘zbekneftesnabsbit”, “Navoiyazot” korxonasi hamda boshqa xususiy firmalar va tadbirkorlardan oldi.

“Noto‘qimachi” AJ ning iqtisodiy xo‘jalik faoliyatini o‘rganganimizda uni kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga alohida e’tibor berlik. Chunki, korxonadagi ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini samarali holda amalga oshirish uchun faoliyati nisbatan samarasiz bo‘lgan tomonlarni o‘rganib, tahlil qilib, ularni samarali faoliyatini ta’minlashga erishish lozim. Quyidagi 2.14-jadvalda korxonadagi turli bo‘limlar holatini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

2.14-jadval

«Noto‘qimachi»AJning kuchli va kuchsiz tomonlari

T.r	Ko‘rsatkichlar	Zaif	O‘rta	Kuchli
	I. Ishlab chiqarish			
1	Korxona ko‘lami:			
	1 - ishlab chiqarish	+		
	2- ishlab chiqarish		+	
2	Dastgohlar holati	+		
3	Ishlab chiqarish holati		+	
4	Mehnat sifati va mehnatga talab		+	
5	Sifat		+	
6	Mahalliy xom ashyolardan foydalanish			+
7	Xom ashyoni sotib olish darajasi	+		
8	Ishlab chiqarish quvvati		+	
9	Ishchilar va kasaba uyushma aloqasi			+
10	Boshqaruv va ishchilar aloqasi		+	
	II. Marketing			
1	Sotuv kanallari		+	
2	Mahsulot sifati		+	
3	Bozor izlanishlari		+	
4	Mahsulot xilma-xilligi		+	
5	Narxni raqobatbardoshliligi	+		
	III. Ilmiy izlanishlar			
1	Korxonaning texnik imkoniyatlari		+	
2	Yangi mahsulot innovatsiyasi		+	
	IV. Boshqaruv			
1	Boshqaruv faoliyati		+	
2	Davlat strukturalari bilan aloqa		+	
3	Moliyaviy resurslar		+	

IZOH. Olib borilgan kuzatishlar natijasida tayyorlandi.

“Noto‘qimachi” AJ dagi iqtisodiy xo‘jalik faoliyatining 20 ta ko‘rsatkichi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ulardan faqat ikkitasigina kuchli tomonlar deb e‘tirof qilindi. Ular mahalliy xom ashyolardan foydalanish hamda ishchilar va kasaba uyushmalarining aloqalaridir.

Korxonada ishlab chiqarishdagi faoliyat, mavjud dastgohlarning holati, xom ashyolarni sotib olish darajasi va korxona mahsulotlari narxlarining raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlari nisbatan zaif tomonlar ekanligi aniqlandi. Korxonada amalga oshiriladigan tadbirlar va ilmiy izlanishlar mana shu tomonlarga yo‘naltirilishi lozim. 1-ishlab chiqarishdagi holat dastgohlarning jismoniy eskirgani natijasida kelib chiqqan bo‘lib, uning natijasida mahsulot tannarxi ortib ketgan va narxni raqobatbardoshligi tushib ketgan. Demak, korxona rahbariyati va iqtisodchilari olidida turgan eng dolzarb masala mavjud dastgohlarni yangi, yuqori unumli va kam sarf-harajat talab etadiganlarini topish hamda ularni jadal tarzda ishlab chiqarishda qo‘llashdir.

Korxonaning eng muhim qator ko‘rsatkichlari, shu jumladan, mahsulot sifati, ishlab chiqarishning holati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, mahsulot sotish kanallari, bozor izlanishlari, korxonaning texnik imkoniyatlari, yangi mahsulot innovatsiyasi, boshqaruv faoliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish singari ko‘rsatkichlar va ular asosidagi yo‘nalishlarda o‘rta darajada faoliyat yuritilmoqda. Bu sohalarda ham izlanishlar olib borish hamda axvolni yaxshilashga doir tadbirlar tuzish va ularni tezda joriy qilish ishlarini olib borish lozim.

Ushbu holatlarning sabablarini aniqlash maqsadida korxonadagi moliyaviy natijalarni tahlil qilamiz va uning o‘tgan davrdagi dinamikasini o‘rganamiz.

Korxonada mahsulot sotishdan olingan daromad yildan-yilga ortib bormoqda. Mahsulot sotishdan sof tushum yillar davomida ortdi. Bir qaraganda ijobiy holatga o‘xshaydi. Ammo, chuqur tahlil qilinsa, axvol yaxshi emasligi namoyon bo‘ladi. Mahsulot sotishdan tushgan daromadga xom-ashyo, yordamchi qismlar va boshqa resurslar narxining ortishi natijasidagi holat ta‘sir qiladi, ya‘ni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi va narxi ortib ketadi. Natijada daromad ham ortib boradi. Mahsulot sotishdan olingan daromadning ortish sur‘ati belgilangan sur‘atdan pasayib

borayotganligi fikrimizning dalilidir. Xatto, 2020 yili 2016 yilgi darajadan past darajada bo'ldi. Korxona oladigan sof foyda darajasini o'tgan yillar davomidagi holatini kuzatish bu fikrimizni yanada chuqurroq dalillar bilan isbotlaydi.

2.15-jadval

“Noto‘qimachi”AJning moliyaviy natijalari (Ming so‘m hisobida)

T.r	Ko‘rsatkichlar nomi	2016	2017	2018	2019	2020
1	Mahsulot sotishdan sof tushum	37597672	49205346	4620536	67230656	81276505
2	Soliq to‘laguncha foyda	1347571	818337	77129	1674760	946973
3	Daromad solig‘i	1014117	672139	69348	1257727	808983
4	Foydadan boshqa soliq va yig‘imlar	6657	53325	-3502	62656	15646
5	Sof foyda	326827	92928	112813	354147	122351

IZOH: «Noto‘qimachi» AJ hisobotlari asosida tayyorlandi.

Sof foyda 2016 yili 326827 ming so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yili 122351 ming so‘mni tashkil qildi. 2020 yili 2016 yilga darajadan kam.

Keyingi boblarda ana shu holatdan chiqish va sanoat korxonalarining iqtisodiy - xo‘jalik faoliyatini yaxshilash maqsadida tajribalar olib boriladi.

Korxonadagi ko‘p holatlarning sabablaridan biri ishlab chiqarish harajatlarning ortib borayotganligidir. Shu sababli korxonadagi ishlab chiqarish harajatlarning o‘zgarishini ko‘rib chiqamiz.

Xom ashyo harajatlari strukturasining o‘rni 1.8% ga o‘sdi. Shu bilan birgalikda yoqilg‘i harajatlari ham ortib bormoqda. qolgan barcha harajatlar moddalarning umumiy harajatlardagi ulushi kamayib bormoqda (2.16-jadval). Elektr energiyasi sarfi umuman 10 % ga ortgani holda 2006 yilga kelib uning mahsulot tannarxi strukturasidagi o‘rni pasayib bormoqda. 2019 yilda yordamchi materiallar 4.7 foizni tashkil etgani holda 2010 yilga kelib uning mahsulot tannarxidagi ulushi 2019 yildagiga qaraganda pasaymoqda yo‘qi 2019 yilgi darajaning 89,3 foizini tashkil qilmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarish harajatlari barcha moddalar bo'yicha ortib bormoqda. O'tgan 2019 yilga qaraganda ular hissassi ortib bormoqda.

Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan korxonalar raqobatbardosh bo'lib, bozorda yetakchi kompaniyalarga aylanadilar. Sifatli va o'z vaqtida yaratilgan innovatsiyalarga asoslangan raqobat korxonalarning faoliyat davomiyligining muhim sharti sanaladi hamda yangi ilmiy natijalarni rivojlantirish va tijoratlashtirishda hal qiluvchi omil bo'ladi.

2.16-jadval

“Noto‘qimachi” AJ da tannarx strukturasi o‘zgarishlar (foiz hisobida).

T.r	Moddalar nomi	Tannarx strukturasi		O'zgarishlar
		2019 yil	2020 yil	
1	Asosiy xom ashyo	83,6	85,1	101,8
2	Yordamchi materiallar	4,7	4,2	89,3
3	Xizmatlar	0,88	0,83	94,3
4	Yoqilg'i	0,41	0,43	104,8
5	Elektr energiya	1,37	1,14	83,2
6	Ish haqi	5,07	4,88	96,2
7	Ijtimoiy sugurta	1,79	1,61	90,0
8	Amortizatsiya	0,48	0,46	95,8
9	Boshqa harajatlar	1,70	1,35	79,4
	Jami:	100,0	100,0	

IZOH: “Noto‘qimachi” AJ hisobotlari asosida tayyorlandi.

Biroq, tahlil natijalari ko'rsatishicha, ko'pchilik korxonalar innovatsion korxonalar emas. Tashqi muhit juda tez o'zgarib turadi, shuning uchun ham innovatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirish lozim. Eskirgan texnika-texnologiyalardan voz kechish, ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion asoslarda yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu muammo nafaqat raqobat bilan chambarchas bog'liq, balki vaqtga ham bevosita bog'liqdir, chunki yangi mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqarishi korxonaning samarali ishlashi uchun ob'ektiv zaruratdir. Yuqoridagi tavsiflar korxonaning muvaffaqiyatga erishish vositalaridir, ular bir-biri bilan bog'langan bo'lib korxonaning innovatsion faoliyatdan oladigan samarasini kuchaytiradi.

III-BOB. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish

Korxonalarda innovatsion loyihaning moliyaviy mexanizmini tadqiq etish jarayonida uni baholashning ko'rsatkichlar tizimi va moliyaviy likvidlik masalalari tahlil etiladi.

Innovatsion loyihalarning moliyaviy holatini aniqlashda hal etiladigan asosiy vazifa - bu o'z vaqtida korxonaning to'lovga layo'qatini nazarda tutgan holda uning likvidligini baholash va moliyaviy majburiyatlarga egaligi bo'yicha to'liq hajmda javob berish (ayniqsa, uning mablag'larini investitsiyalash davridagi chora-tadbirlar) dan iboratdir.

Korxonaning likvidligi ob'ektning yaratilishi va ekspluatatsiya qilinishining barcha muddati mobaynida korxonaga tushum va to'lovlar balansining ijobiy saldosi ifodalaydi. Qandaydir vaqt oralig'ida korxona mablag'larini qoplash uchun mablag'larning yetishmasligi bankrotlik xavfini soladi va muvofiq loyihani real amalga oshirish muammosini keltirib chiqaradi.

Belgilangan loyihani amalga oshirishda korxonaning moliyaviy to'lovga qodirligini tekshirish natijalari shunday holatda ijobiy bo'ladiki, agarda uning xususiy va jalb qilingan mablag'lari bo'yicha mavjud imkoniyatlari qarzni to'lash jadvalining muddatlariga muvofiq kelsa va miqdori bo'yicha yetarlicha bo'lsa.

Loyihaning to'lovga qodirligi moliyaviy hisobotning uchta shakliga asoslanadi. Korxona moliyaviy holatini (innovatsion loyihasi) istiqbollashtirish rejasi moliyaviy baholashning bazis shakli deb nomlanuvchi hisobot shakllari bo'yicha tuziladi.

Moliyaviy holatning kelgusidagi rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: foyda rejasi (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot asosida tuziladi); pul mablag'lari harakati rejasi (pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot asosida tuziladi); rejali balans (balans hisoboti shakli bo'yicha).

Uchta hujjatning hammasi umumiy boshlangich ma'lumotlarga asoslanadi va shuning uchun ular bir-biri bilan moslashtiriladi. Ushbu shakllarning har biri har

tomondan loyihaning istiqboli to'g'risida axborotga ega bo'lib, uning ishonchliligi va samaradorligi haqida umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi. Bunda loyihani realizatsiyasi ishtirokchilari u to'g'risida axborotlarni turlicha qabul qiladi. Korxona jamoasi va uning aksionerlari uchun eng katta qiziqish foyda rejasidir, banklar (kreditorlar) uchun esa - pul mablag'lari harakati rejasi hisoblanadi.

Foyda rejasida u yoki bu davr mobaynida korxona daromadlari va harajatlari o'rtasidagi nisbatning namunasi ishlab chiqiladi. Daromadlar va harajatlarning hajmining tahlili loyihani amaliyotga joriy etishga ularni qo'yish uchun zaxira mablag'larini baholash imkonini beradi. Bu reja tuzilish shakli soliq to'lovlari va dividendlar olinishini hamda ishlab chiqarish hajmining mutanosib o'zgarishida to'g'ridan-to'g'ri harajatlarga tannarxni va ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga muayyan chegarada sezilmas shartli-doimiy qo'shimcha harajatlarni taqsimlashni ta'minlaydi.

Rejalashtirish davri mos ravishda bir yilga qabul qilinadi. Rejalashtirish umumiy intervali loyihani amaliyotga joriy qilish harajatlarini to'liq qoplash uchun korxonaga zarur bo'lgan loyihalashtirish, qurilish, ob'ekt quvvatini o'zlashtirish vaqti, yillar sonini o'z ichiga olishi kerak.

Bu umumiy tavsiyalar rejalashtirishning qandaydir aniq davomiyligi to'g'risida gapirishga imkon bermaydi. Har bir loyiha uchun u boshqacha bo'ladi.

Amaliyotda barcha holatlarda reja tuzilishining vaqtinchalik imkoniyat doirasi uni ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi va investitsion harajatlarni qoplash vaqti boshlanishini ifodalaydi.

Korxona foydasi rejasini ishlab chiqishda soliq qonunchiligi, korxona huquqiy maqomi, yo'nalishlari va faoliyat ko'rinishlari kabi xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Bir vaqtda olinadigan axborotlar loyihaning to'lovga qodirligini baholashda navbatdagi muhim qadam sifatida baholanishi mumkin.

Keyingi bosqichda loyihani moliyalashtirish (pul mablag'lari harakati rejasi) manbalarining shakllanishi va undan foydalanish rejasi ishlab chiqiladi. Ahamiyatli darajada asoslangan bu bosqichning ma'lumotlari loyihalarning moliyaviy to'lovga qodirligi to'g'risida yakuniy xulosaga yaqinlashish imkonini beradi.

Foyda bo'yicha rejada keltirilgan daromadlar va harajatlar tushunchasi pul mablag'larining xaqiqatda harakatini ifodalamaydi. Shunday ekan, realizatsiya qilinadigan mahsulotlarga tushum har doim ham uni yuklashda amalga oshiriladigan davrga tegishli emas. Korxonaning boshqa yo'nalishlardagi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar (masalan, moliyaviy va investitsion faoliyati to'g'risida) hisobga olinmaydi.

Korxona foydasidan tashqari loyihani amalga oshirishga mablag'lar manbai sifatida yangi aksiyalarni emissiya qilish hisobiga xususiy jamg'arma oshishi, yangi zayomlarni olishi yoki obligatsiyalar chiqarishi sababli majburiyatlarning oshishi, yangi ko'rilaётgan ob'ekt mahsulotlarini ishlab chiqish natijasidagi tushum va boshqa daromadlar qarab chiqilishi mumkin.

Mablag'lardan foydalanish asosiy yo'nalishlari doimiy aktivlarga va aylanma mablag'larni to'ldirilishiga investitsiyalar, joriy ishlab chiqarish faoliyatiga harajatlar, tashqi qarzдорlikka xizmat ko'rsatish (kreditlarni uzish va foizlar to'lash), byudjet bilan hisob-kitoblar, dividendlar to'lash va xk.

Shunday holat muhim bo'lib, ko'rib chiqilayotgan shaklni tayyorlashda mablag'lar oqimi sifatida korxonada joriy harajatalarning hammasi emas, balki faqatgina operatsion harajatlar va foiz to'lovlari hisobga olinadi. Amortizatsiya ajratmalari loyihani amalga oshirishni moliyalashtirish manbasi sifatida tasniflanadi. Shuning uchun korxonaning loyihani amalga oshirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan bo'sh pul mablag'larining umumiy hajmi qarab chiqilayotgan davr oraligida sof foyda va amortizatsiya ajratmasi summasiga tengdir.

Boshqa tomondan, shuni e'tiborga olish kerakki, tashqi qarzlarni nafaqat foyda hisobiga, balki amortizatsiyani hisobga olgan holda har qanday bo'sh pul mablag'lari hisobiga ham to'lash imkoniyati bor.

Uchinchi yakunlovchi bosqichda asoslangan holda an'anaviy bugalteriya balansi tuziladi, biroq zarurat mavjud bo'lmaganligi sababli va uni ishlab chiqish imkoniyatlari alohidalashgan, yaxlit shaklda (analitik, sintetik balans) olib boriladi. Balansni ishlab chiqish maqsadi - realizatsiya qilinayotgan loyihani moliyaviy

manbalari (passiv) va mol-mulk tarkibi (aktiv) o'zgarishi dinamikasining namunasi hisoblanadi.

Bunda korxona moliyaviy holatining ma'lum ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi: umumiy va joriy likvidlikni baholash, aylanish tezligi koeffitsienti, umumiy to'lovga layo'qatlilik va boshqalar. Asosiy diqqat e'tibor loyihaning aylanma mablag'lar ta'minotiga beriladi.

Loyihani amalga oshirishni rejalashtirishda ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlash va aylanma mablag'larni hisobga olish uchun aylanma mablag'larga extiyojni alohida qarab chiqish kerak.

Ishchi kapital (loyihaning normal realizatsiyasi va uning shakllanishi uchun zarur) hisobi uchun joriy aktivlarning u yoki bu bo'limni tanlashda ajratib turadigan belgilar o'rnatilgan aylanish davri yoki aylanuvchanlik koeffitsientidan kelib chiqib, uning miqdorini me'yorlashtirish imkoniyati bo'lishi zarur. Me'yorlashtiriladigan joriy aktivlarga "Omborda xom ashyo va materiallar zaxirasi", "Tugallanmagan mahsulot", "Tayyor mahsulot", "Tovarlar" va "Pul mablag'lari zaxirasi" kabi moddalar tegishli. Qolgan aylanma aktivlar bo'limlari me'yorlashtirilmaydi.

Me'yorlashtiriladigan joriy passiv bo'limiga "Ish haqi hisobi", "Byudjet bilan hisob-kitoblar", "Personal bilan hisob-kitoblar" kabilar tegishli.

Me'yorlashgan joriy aktivlar va me'yorlashgan joriy passivlar o'rtasidagi farq aylanuvchanlik me'yori va loyiha xususiyatlarini aniqdovchi miqdorni, aylanma kapitaldagi minimal extiyojlarni namoyon etadi. Biz, "aylanma kapitalga extiyoj" va "sof aylanma capital" terminlariga asosiy e'tiborimizni qaratamiz.

Buxgalteriya hisobida kelgusi davr harajatlarini aniqlashda ularga mahsulot tannarxiga tegishli bo'lmagan buxgalteriya balansini tuzish jarayonidagi harajatlarni qamrab oladi. Bunday harajatlarga, masalan, bir yil oldin to'lanadigan ijara to'lovlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga harajatlar kiradi. Yillik ijara to'lovlari asta-sekin tannarxga o'tkazib boriladi. Ilmiy tadqiqot ishlanmalariga harajatlar korxonaning xususiy mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ularning natijasiga bog'liq holda ishni yakunlash bo'yicha esa, yo barcha harajatlar zarar sifatida hisobdan chiqariladi yoki ularning keyingi amortizatsiyasi bilan olingan patentlar, nou-xau, boshqa tadqiqot

natijalari nomoddiy aktivlar qiymatiga kiritilishi hisobiga asosiy fondlar ortishi imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qanchalik darajada u yoki bu loyiha korxona maqsadlariga (kapital harajatlar hisobga olinadigan muvofiq foyda, korxona moliyaviy holatining barqarorligini qo'llab-quvvatlash) erishishni nazarda tutadi. Bunda loyihaning optimalligini baholash uchun optimal ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Barqaror iqtisodiyotda kreditlar bo'yicha foizlar aksionerlik kapitaliga to'lanadigan dividendlarga nisbatan yetarlicha past bo'ladi. Bu holatda aksionerlik kapitalining solishtirma salmogi minimal imkoniyatga ega bo'ladi, biroq tashqi majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning barqarorligining kafolatlanganligini keyinga qoldirilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Respublikamizning hozirgi iqtisodiy rivojlanishi sharoitida kredit foiz stavkalari yuqori hamda aksionerlar oldidagi dividendlar bo'yicha majburiyatlar va ular huquqining himoyalanganligi shu qadar noreal bo'lib, mantiqqa zid bo'lgan holatni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu paragrafda kompleks bajarilgan iqtisodiy asosnomalar kapital harajatlarni o'rnini to'ldirish davridagi hisob-kitoblarni nazarda tutuvchi sof foyda va amortizatsiya ajratmalarining yillik miqdorini aniqlaydi.

Loyihada kapital qo'yilmalarning o'rnini to'ldirish davrini aniqlash maqsadi - kapital harajatlarni o'rnini to'ldirishga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq vaqt oraligini o'rnatish. Bunda hisob-kitobni amalga oshirish jarayonida jami sof foyda va amortizatsiya ajratmalari investitsion kapitalning qaytimiga yo'naltiriladi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz iqtisodiyoti uchun muvofiq keladigan innovatsion kon'yunktura sanoat korxonalari uchun tashqi omil sifatida innovatsiyalar jozibadorligini ifodalaydi. Innovatsion kon'yunkturani shakllanish holatini baholash bir qator parametrlar yoki ko'rsatkichlarga asoslanadi. Ushbu parametrlar muayyan mamlakatning innovatsiyalarni yaratish va joriy etish salohiyati hamda ularni amalga oshirish bilan bog'liq riskini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Ularning eng muhimlari sifatida: makroiqtisodiy barqarorlik innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi,

innovatsiya faoliyati huquqiy asoslari; soliq tizimining sifati va soliqqa tortish darajasi; bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi; innovatsiyalarga bo'lgan talab va taklif nisbati, mamlakatda xususiy kapitalning rivojlanish darajasi; fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya rivojlanish darajasi, hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; davlat boshqaruv tizimi kabilarni keltirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, respublikamiz sanoati tarmogida innovatsiya muhiti yaxshilanishiga quyidagilar o'z ta'sirini o'tkazadi:

- sanoat korxonalarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish;
- sanoat majmuasi tashkilotlari va korxonalari likvidligini ta'minlash choralari bo'yicha audit o'tkazish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- sanoat majmuasi korxona va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatlarni moliyalashtirishning tashqi manbalar hisobiga rag'batlantiruvchi tizimini ishlab chiqish;
- byudjet mablag'lari hisobiga ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish bilan birga xususiy kapital asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantirish;
- iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning motivatsion mexanizmini yaratish va raqobat muhitini shakllantirish;
- sanoat korxonalarida foydaning ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga yo'naltirilgan qismini soliqdan ozod etish.

Respublikamiz sanoati tarmogining zamonaviy moddiy-texnik bazasini mustahkamlash omili sifatida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tarmoq rivojlanishining raqobat muhitini yaratish, tovar va xizmatlarning ilg'or dasturlarini ishlab chiqish maqsadida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

3.2. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish

Innovatsion rivojlanishning maqsadlari va vazifalarini aniqlashdagi xatolar innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan moliyaviy va boshqa resurlarni natijasiz sarflashga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, korxonaning innovatsion faoliyatga samarasiz sarflangan vaqti sanoat tarmogida fan sig'imi yuqori ishlab chiqarishni rivojlantirishning mavjud yuqori sur'atlari bilan bog'liq moliyaviy resurslar qatorida kam bo'lmagan yo'qotish hisoblanadi.

Sanoatni innovatsion rivojlanishining belgilangan yo'nalishlari doirasida loyihalar o'rtasidagi o'zaro bog'liq va to'liq bo'lmagan realizatsiyani amalga oshirish korxona faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha ijobiy samaraga ega bo'lishi mumkin, biroq korxonaning umumiy innovatsion rivojlanishi sinergetik samaradan mahrum bo'ladi. Innovatsion loyihani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishda resurslar manbalari va yakuniy innovatsiyalar iste'molchilari tahlil qilingan bo'lishi zarur, ya'ni korxonaning tashqi muhit tahlili o'tkazilishi kerak. Mazkur omillar bir vaqtning o'zida innovatsion loyihani amalga oshirish va qaror qabul qilish jarayonida hisobga olinishi kerak. Aynan shuning uchun moliyaviy va resurs ta'minotidagi mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda, innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida ulardan foydalanishni optimallashtirish natijasida innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalari asosida korxonaning innovatsion faoliyatini kompleks boshqarishni amalga oshirish muhimdir.

Korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish sxemasini amalga oshirishda quyidagi vositalarni kiritish muhim hisoblanadi:

- innovatsion g'oyalarni joriy etish uchun istiqbolli loyihalarni tanlash vositasi;
- innovatsion faoliyatning tashqi va ichki omillarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash vositalari;
- sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoqdari korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni optimallashtirish vositalari.

Korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarishning yuqorida keltirilgan vositalarini hisobga olgan holda uni realizatsiya qilish algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat (3.1-rasm).

3.1-rasm. Korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish algoritmi



Birinchi bosqichda korxonaning rivojlanishiga davlat, tarmoq va korxona rahbariyati qarashlarining rasmiyligidan iborat korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mezonlarini shakllantirish zarur. Bu qarashlar korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari, korxona faoliyatining alohida ustuvor yo'nalishlari, realizatsiya qilinayotgan loyihalarning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan

risk darajasi, loyihalarning innovatsionligi va iqtisodiy samaradorlikning maqsadli ko'rsatkichlarida ifodalanadi.

Ikkinchi bosqichda korxonaning innovatsion infratuzilmasi holati va uning innovatsion faoliyati ko'rsatkichlari hamda ushbu sohada mavjud statistik axborotlar tahlilini o'tkazish kerak. Mazkur axborot turli yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona imkoniyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Turli xil yo'nalishlar bo'yicha innovatsion faoliyatga qo'yilmalar samaradorligi qarab chiqilayotgan korxona doirasida texnik jihozlanishi, kadrlar salohiyati, mavjud an'analar va u yoki bu innovatsion ishlanmalar tajribasiga bog'liq holda bir-biridan farq qiladi.

Uchinchi bosqichda innovatsion rivojlanishning mavjud jahon trendi va hamda innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarga davlat va tarmoq extiyojlari tahlilini o'tkazish zarur. Innovatsion faoliyat samaradorligining ajralmas qismi bo'lib, uning natijalariga talab hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning kutilayotgan natijalariga talabni istiqbollashtirishga harakat qilish uchun korxona faoliyatining yo'nalishlariga innovatsion qarorlarda davlat buyurtmalari, tarmoq va bozor talabini aniqlash zarur. Biroq innovatsion loyihalarni amalga oshirish yetarlicha uzoqroq vaqtni qamrab olishi mumkin. Buning asosiy sababi davlat buyurtmasi, tarmoq va bozordagi talabga qarab innovatsion qarorlar o'zgarishi mumkin. Shuning uchun innovatsion faoliyatning turli yo'nalishlarida trendlar va tendentsiyalarning o'zgarishini monitoring va tahlil etish kerak.

To'rtinchi bosqichda korxonaning innovatsion rivojlanishini istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash zarur. Korxonaning innovatsion loyihalarini realizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda quyidagi omillarni e'tiborga olish kerak:

- korxonaning ichki resurslarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari;
- innovatsion faoliyat sohasida mavjud tendentsiyalar;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida korxonaning manfaatlari;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida tarmoq manfaatlari;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida davlat manfaatlari;

- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni amalga oshirishda investor manfaatlari.

Har bir aniq holatda yuqorida keltirilgan omilarning muhimligi mulk shakli va iqtisodiy faoliyatni olib borishi, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va korxona rahbariyatining munosabatiga bog'liqdir.

Beshinchi bosqichda korxonada realizatsiya qilish uchun innovatsion loyihalar ro'yxatini shakllantirish kerak. Ro'yxatda keltirilgan har bir loyiha uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar (sof joriy qiymat yoki sof diskontlangan daromad, daromadlikning ichki normasi, loyihani qoplashning diskontlangan muddati, diskontlangan harajatlar, diskontlangan harajatlarning daromadlilik indeksi) va innovatsion ko'rsatkichlar (innovatsiyalarni o'z-o'zini moliyalashtirish koeffitsienti, innovatsion loyihalarning fan sig'imkorligi koeffitsienti, innovatsion loyihaning natijasi hisoblangan mahsulotlar va xizmatlarning fan sig'imkorligi koeffitsienti, innovatsiyalarni joriy qilgandan keyin mahsulotlar rentabelligining o'sishi koeffitsienti) ning hisob-kitobi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Oltinchi bosqichda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarining innovatsion loyihalarini realizatsiya qilishni baholashni o'tkazish kerak. Innovatsion loyihalarning realizatsiyasi loyihaning yakuni muvaffaqiyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha tashqi omillarning faol ta'siri ostida amalga oshiriladi. Innovatsion loyihalarni past ko'rsatkichlar asosida realizatsiya qilish samarasiz bo'lishi mumkin. Innovatsion faoliyatni realizatsiya qilish doirasida korxonada mavjud bo'lgan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni baholashni o'tkazish taklif etiladi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish muayyan moliyalashtirish bilan qo'yilgan ish hajmi ko'pchilik turlarini bajarishni qamrab oladi. Har bir ishni bajarilish muvaffaqiyati ko'pchilik omillar bilan bog'liq bo'lib, uning asosiysi moliyalashtirish hisoblandi. Innovatsion loyihalar iqtisodiy jihatdan amalga oshirilishini aniqlash uchun bajarilgan ishlar hajmida loyihaning tarkibiy tuzilishini o'rganish va ushbu ko'rinishdagi ishlar bo'yicha yig'ilgan statistika asosida muayyan moliyalashtirish

hajmidan kelib chiqib, har bir ish hajmini muvaffaqiyatli tugatish ehtimolligini aniqlash taklif etiladi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish to'g'risida axborot va statistik ma'lumotlar loyihalarni amalga oshirish va korxonalarning innovatsion faoliyati to'g'risida statistik axborotlarni saqlash uchun mo'ljallangan maxsus ma'lumotlar bazasiga yig'ilgan, qayta ishlangan va berilgan bo'lishi zarur.

Yettinchi bosqichda innovatsion loyihalar portfellarining shakllanishi va tanlanishi o'tkaziladi. Mavjud texnologik rivojlanish trendlari, tomonlarning innovatsion faoliyatda ishtirok etish ustunliklari, loyihalarning iqtisodiy va innovatsion tavsifi, loyihalar ro'yxatida keltirilganlarning o'rnatilgan mezonlarga to'liq mos keladiganlarini tanlash kabilarni hisobga olish zarur.

Sakkizinchi bosqichda sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarida innovatsion loyihalarni optimallashtirishni hisobga olgan holda tanlangan innovatsion loyihalar realizatsiyasini boshlash kerak. Yuqorida keltirilgan korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarish algoritmi realizatsiyasi xozirgi vaqtda respublikamiz sanoat tarmog'ida dolzarb hisoblangan innovatsion rivojlanish muammolarini hal qilishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- innovatsion loyihalarni realizatsiya qilinishi darajasini oshirish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- innovatsion faoliyat natijasida halqaro, davlat va tarmoq ehtiyojlari va buyurtmalari doirasida korxonalarning innovatsion faoliyatini faollashtirish.

Innovatsion faoliyatni boshqarishning keltirilgan funktsional tizimi korxonaning samarali faoliyat yuritish maqsadlariga muvofiqlikda uning tashkiliy tuzilmalari o'rtasida aniq taqsimlangan bo'lishi kerak.

Sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarining kelgusidagi rivojlanishi korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmi, uning asosiy holati tartibini belgilovchi kontseptual hujjatni yaratishni talab etadi. Bunday kontseptsiyani amalda realizatsiya qilish yuqori texnologik, fan sig'imi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida raqobat ustunligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash zarur. Shu sababli texnologik innovatsiyalarni joriy etish asosida sanoat ishlab chiqarishida yuqori samaradorlikka erishish uchun texnik chora-tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Korxonalarda texnologik innovatsiyalarni joriy etish tadbirlari quyidagilardan iborat:

- mashina va mexanizmlarning yangi hamda takomillashgan turlari va konstruktsiyalarini joriy etish;
- xom ashyo, materiallar, yo'qligi va energiyaning yangi turlarini yaratish;
- texnologik innovatsiyalarning yangi va takomillashgan turlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- korxona faoliyatini boshqarishning innovatsion shakllarini joriy etish;
- ixtirochilik va novatorlik takliflarini ishlab chiqish.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot hajmini oshirish, uning sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligiga erishish uchun fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish zarur. Bu faoliyat ma'lum iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish asosida amalga oshiriladi. Chora-tadbirlar albatta samarali bo'lishi kerak. Uni hisobga olmasdan, baholamasdan innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etib bo'lmaydi.

3.3. Tovar diversifikatsiyasi asosida korxonalar iqtisodiy barqarorligini oshirish.

Tovar innovatsiyasi yangi tovarni ishlab chiqish va qo'llashni kuzda tutadi va amalga oshirish shakli bo'yicha tovar differentsiatsiyasi va tovar diversifikatsiyasiga bo'linadi.

Tovar diversifikatsiyasi bu – tovar strategiyasi turi bo'lib, unga asosan korxona ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sonini kengaytiradi va yangi bozorlarni egallab olish, qo'shimcha foyda olish maqsadida ishlab chiqarishning bir-biri bilan bog'lik

bo'lmagan ikki yoki undan ortiq turini bir vaqtning o'zida kengaytirishi va rivojlantirishidir.

Tovar diversifikatsiyasi o'zida raqobatchi tovarlardan ajralib turuvchi qiladigan bir qator asoslangan tovar modifikatsiyasini ishlab chiqish jarayonini mujassamlashtiradi.

Bozorni modifikatsiyalashda sotish hajmini oshirish, iste'molchilar ishonchini qozonish, yangi bozor segmentlariga tovarni chiqarish, mijozlar e'tibori va qiziqishini ushbu firma chiqarayotgan tovarlarga qaratish, xaridorlarni tovarni intensiv iste'molini rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi.

Tovarni modifikatsiyalashda tovar sifatini oshirish, tovar xossasini yaxshilash, tovarni bezash va tashqi dizaynini yaxshilash ko'zda tutiladi.

Marketing-miksni modifikatsiyalashda esa marketing elementlaridan to'liq ishlatishni nazorat qilish optimal maqsadda marketing elementlarini shakllantirish va qo'llash ko'zlanadi.

Diversifikatsiya tovarlarni turli tumanligi hisobiga jalb etuvchanligini yaxshilashga asoslanadi.

Tovar diversifikatsiyasining maqsadi bo'lib iste'molchilarni tovarni afzal ko'rish, alohida bozor yoki bozor segmenti xususiyatlarini hisobga olish orqali tovarni jalb etuvchanligini oshirish, uni raqobatbardoshligini o'sishi hisoblanadi.

Tovar diversifikatsiyasi quyidagi omillar bo'yicha amalga oshiriladi:

Tovarni qo'shimcha imkoniyatlari

Tovardan foydalanish samaradorligi

Komfortlilik

Ishonchlilik

Tovar dizayni va stili.

Tovar diversifikatsiyasi firmaning tovar siyosatida muhim o'rin egallaydi. Bu strategiya yangi sotuv bozoriga taklifni rejalashtirishda qo'shimcha tovarlarni ishlab chiqarishni boshlaganda qo'llaniladi. Diversifikatsiya firma faoliyatida barqaror o'sishini ta'minlash uchun samarali vosita sifatida chiqadi.

Diversifikatsiyani 3 ta turi mavjud: gorizontal, vertikal va kontsentrik.

Kontsentrik diversifikatsiya korxona uchun yangi tovarni ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.

Gorizontal diversifikatsiya deganda ilgarigi tovarlarga o'xshash ishlab chiqarish, texnik, ta'minot va sotish sharoitlariga yaqin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish tushuniladi.

Vertikal diversifikatsiya esa ilgarigi tovar ishlab chiqarishni sotuv yo'nalishi sifatida ham tovar dasturini chuqurligini o'stirishni anglatadi. Masalan, go'sht maxsulotlarini sotuvchi maxsus do'kon mol etishtirishni va selektsiya bo'yicha ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi.

Maqsadli bozorni o'zlashtirish yo'llarini qidirishda muqobil strategiyalarni aniqlash uchun I.Ansoff tomonidan 1966 yilda taklif etilgan "tovar-bozor" matritsasi ishlatiladi. Bu quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

3.1-jadval

"Tovar-bozor" matritsasi

Tovarlar	Bozorlar	
	Joriy	Yangi
Joriy	Bozorga chuqurroq kirib borish strategiyasi Sotishni jadallashtirish Yangi xaridorlarni qidirish Rakobatchilarni sindirish Tovarni iste'mol soxasini kengayishi	Bozorni rivojlantirish strategiyasi Yangi bozorlar Yangi sotish xududlari Xalqaro bozorlar Tovarni ishlatilishini yangi soxalarini tuzish
Yangi	Tovarni rivojlantirish Uz kuchi bilan yangi tovar ishlab chiqarish Bitimlarni rivojlantirish Litsenziya Maxorat bilan ayirboshlash	Diversifikatsiya Gorizontal Vertikal Kontsentrik

Manba: Bagiev G.L. i dr. Marketing, M.:Piter, 2005

3.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, firmaning afzalligini o'sish manbalarini uzaytirishni 4 ta asosiy strategiyalari bo'lishi mumkin:

1. Bozorga chuqurroq kirib borish strategiyasi;
2. Tovarni takomillashtirish strategiyasi.
3. Bozorni rivojlantirish strategiyasi;
4. Diversifikatsiya.

Yangi tovarlarni ishlab chiqish va qo'llash innovatsiya siyosatining tamoyil va uslublariga, xususan, tovar innovatsiyasi jarayoniga mos holda amalga oshiriladi.

Tovar innovatsiyasi jarayoni 6 bosqichni o'z ichiga oladi:

- yangi tovar haqida g'oyani qidirish
- g'oyani tanlash
- yangi tovar g'oyasini tijoratlashuvini iqtisodiy tahlili
- tovarni ishlab chiqish
- bozor sharoitida uni tajribadan utkazish
- tovarni bozorga qo'llash

Tovar innovatsiyasi jarayoni yangi tovar haqida g'oyani qidirish bilan boshlanadi. Yangi tovar g'oyani qidirishni asosi bo'lib tovar haqidagi ichki va tashqi g'oyalar manbai xisoblanadi.

Tashqi tovar haqidagi g'oyalar manbaiga: savdo korxonalari, xaridor va iste'molchilar, rakobatchilar, yarmarka va ko'rgazmalar, tadqiqot institutlari, ta'minotchilar, vazirliklar va boshqa davlat institutlari kiradi.

Tovar haqidagi ichki g'oyalar manbaiga: marketing tadqiqotlari bo'limi, ishlab chiqarish bo'limi, marketing bo'limini barcha qismlari, xalqaro iqtisodiy xamkorlik bo'limi, tovarni tayyorlash bo'limi kiradi.

Tovar innovatsiyasi jarayoni bosqichlari o'z mazmuniga ko'ra yangi tovarni rejalashtirish jarayonini ifodalaydi.

Yangi tovarni rejalashtirishning vazifasi muqobil variantlarni qidirish va ishlab chiqishdan iboratdir.

Yangi tovarni rejalashtirish uchun turli uslublar qo'llaniladi. Yangi tovar haqida g'oyani baholashda bozorni tadqiq qilish va ijodiy uslublardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlil bosqichida foydani solishtirish, zararsizlikni baholash uslubi, xavf-xatar tahlili uslublaridan foydalaniladi.

Tovarni ishlab chiqish bosqichlarida tovar ishlab chiqish uslublari, tovar markasini ishlab chiqish texnikasi uslublari, xarajatlarni hisoblash uslublari ishlatiladi.

Tovar diversifikatsiyasi bu – tovar strategiyasi turi bo'lib, unga asosan korxona ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sonini kengaytiradi va yangi bozorlarni egallab

olish, qo'shimcha foyda olish maqsadida ishlab chiqarishning bir-biri bilan bog'lik bo'lmagan ikki yoki undan ortiq turini bir vaqtning o'zida kengaytirishi va rivojlantirishidir.

Tovar diversifikatsiyasi o'zida raqobatchi tovarlardan ajralib turuvchi qiladigan bir qator asoslangan tovar modifikatsiyasini ishlab chiqish jarayonini mujassamlashtiradi.

Bozorni modifikatsiyalashda sotish hajmini oshirish, iste'molchilar ishonchini qozonish, yangi bozor segmentlariga tovarni chiqarish, mijozlar e'tibori va qiziqishini ushbu firma chiqarayotgan tovarlarga qaratish, xaridorlarni tovarni intensiv iste'molini rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi.

Rentabellik – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxona aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy nochor korxona – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to'lash bo'yicha talablarini qondirish, shuningdek, byudjet va nobyudjet fondlariga majburiy to'lovlarni ta'minlashga layoqatsiz bo'lgan korxona.

Moliyaviy sog'lomlashtirish – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

Bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotini ortiqcha yukdan xalos qilish, byudjet va ish haqi bo'yicha umumiy miqdori 1 trillion so'm kreditorlik qarzini uzish, bankrot korxonalar negizida 100 dan ortiq yangi turdagi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qo'shimcha ravishda 17 mingdan ortiq ish o'rni yaratish imkonini berdi.

Rentabellik ko'rsatkichlari barcha korxonalar faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko'rsatkichidir.

Korxona faoliyatini tahlil qilishda foydaning umumiy summasi bilan birga, u qanday xarajatlar evaziga olinayotganlini, mablag'lar qanday darajada aylanayotganligini bilish mulkdorlar, sheriklar va kreditorlar uchun o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun korxonaning moliyaviy hisobotida foydalilik darajasi va mablag'lar aylanishini ifoda etuvchi quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiriladi:

1. Aktivlar rentabelligi. (R_a):

$$P_a = \frac{SF}{JAYq}$$

u erda: SF – sof foyda;

JAYq – korxona jami aktivlarining o'rtacha yillik qiymati.

2021 yilda $R_a = 331167 / 1772220 = 0,18$

2022 yilda $R_a = 599780 / 3690490 = 0,16$

2023 yilda $R_a = 138220 / 2326320 = 0,06$

2. Sotilgan mahsulot rentabelligi (R_{SM}):

$$P_{cm} = \frac{YaF}{SST} \quad \text{yoki} \quad P_{cm} = \frac{SF}{SST}$$

Bu erda: R_{SM} – sotilgan mahsulot rentabelligi;

YaF – yalpi foyda;

SF – sof foyda;

SST – mahsulot sotishdan sof tushum.

2021 yilda $R_{SM} = 331167 * 100 / 2756123 = 12 \%$

2022 yilda $R_{SM} = 599780 * 100 / 3151660 = 19,3 \%$

2023 yilda $R_{SM} = 138220 * 100 / 1370940 = 10,08 \%$

3. Xususiy kapital rentabelligi (R_{xk}):

$$P_{xk} = \frac{SF}{XK}$$

Bu erda: SF – sof foyda;

XK – xususiy kapital o‘rtacha yillik qiymati.

2021 yilda $R_{xk} = 331167 * 100 / 232610 = 142 \%$

2022 yilda $R_{xk} = 599780 * 100 / 607400 = 98 \%$

2023 yilda $R_{xk} = 138220 * 100 / 266148 = 51,9 \%$

4. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (R_{ix}),

$$P_{ux} = \frac{SF}{MIT}$$

2021 yilda $R_{ix} = 331167 / 551726 = 0,6$

2022 yilda $R_{ix} = 599780 / 2402030 = 0,24$

2023 yilda $R_{ix} = 138220 / 435030 = 0,31$

5. Asosiy vositalar rentabelligi.

$R = \text{Cof foyda} * 100\% / \text{Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati}$

2021 yil $331167 * 100 / 1146920 = 28,9 \%$

2022 yil $599780 * 100 / 1275190 = 47 \%$

2023 yil $138220 * 100 / 1703100 = 8,1 \%$

6. Aylanma (oborot) aktivlar rentabelligi.

$R = \text{Cof foyda} * 100\% / \text{Oborot aktivlar o‘rtacha yillik qiymati}$

2021 yil $331167 * 100 / 625300 = 53 \%$

2022 yil $599780 * 100 / 2415300 = 24,8 \%$

2023 yil $138220 * 100 / 623220 = 22,1 \%$

7. Qarz mablag‘lari rentabelligi. Ushbu ko‘rsatkich korxona sof

foydasini qarzga olingan mablag‘lariga nisbati asosida aniqlana-

di. Bu ko‘rsatkich har bir so‘mlik qarz mablag‘iga to‘g‘ri keladigan

foyda summasini ifodalaydi.

$\text{Cof foyda} * 100\% / \text{Qarz mablag‘lari jami}$

2021 yil $331167 * 100 / 956123 = 34,6 \%$

2022 yil $599780 * 100 / 1076800 = 55,7 \%$

2023 yil $138220 \cdot 100 / 271500 = 50,9 \%$

Tahlil korxonaning moliyaviy hisoblari asosida oxirgi uch yildagi moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalangan holda amalga oshiriladi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Korxonaning rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot ma'lumotlari			2023y.da 2021y.ga nisbatan farqi,(+,-)
	2021y.	2022y.	2023y.	
1.Aktivlar rentabelligi	18	16	6	-12
2. Sotish rentabelligi	12	19,3	10,08	-1,92
3.Xususiy kapital rentabelligi	142	98	51,9	-90,1
4. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi	60	24	31	-29
5. Asosiy vositalar rentabelligi.	28,9	47	8,1	-21,8
6. Oborot aktivlar rentabelligi.	53	24,8	22,1	-30,9
7. Qarz mablag'lari rentabelligi.	34,6	55,7	50,9	+16,3

Manba: korxona yillik hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

“ABS” MChJ ning rentabellik ko'rsatkichlari, ularning turlari va ta'sir etuvchi omillar tahlili (3.2-jadval)ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan “ABS” MChJ da 2023 yilda o'tgan yillarga nisbatan aksariyat rentabellik turlari bo'yicha o'sish kuzatilgan.

Bu shundan dalolat bermoqdaki, 2022 yilda korxonaning samaradorligi oshib borayotganligidan hamda uning moliyaviy holati yaxshilanayotganligidan dalolatdir. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2023 yilda esa aksincha bo'lgan, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum miqdori biroz ortgan bo'lsa, bunga mos ravishda mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi ham ortgan, boshqa turdagi aktivlar esa o'sgan. Sof foyda miqdori esa oldingi yillarga nisbatan 2023 yilda keskin kamaygan. Natijada aksariyat rentabellik ko'rsatkichlarida kamayish tendentsiyasi hosil bo'lgan.

XULOSA

Monografiyada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Monografiyada sanoat korxonalari xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishning eng muhim mezonini sifatida «innovatsiya» va «innovatsion faoliyat»ga oid kategoriyalarning mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Innovatsiya - bu yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy qilish, sarf-harajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste’molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir. Innovatsion faoliyat - innovatsion g‘oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo‘llanilishi va amalga oshirilishini ta’minlovchi faoliyat.

2. Innovatsiya ko‘rinishlari, ularni joriy etish bosqichlari va natijalarini realizatsiya qilish doirasida ko‘rsatilgan faoliyat yo‘nalishlari asosida innovatsiyalarni amalga oshirishning muhim tavsifi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, innovatsion jarayonlar turli bosqichlarda amalga oshiriladi va barcha ko‘rinishdagi innovatsiyalar ixtiro sifatida tijorat maqsadida foydalaniladi.

3. Ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishlari, hayotiylik davrining tarmoq tuzilishi, o‘zgarishlar darajasi, innovatsion faoliyatni amalga oshirish manbai, ishlab chiqarish jarayonidagi roli, ehtiyojlarni qondirish tavsifi, yangilik darajasi, bozorga chiqish vaqti, vujudga kelish sabablari, qo‘llash predmeti va ko‘lamiga ko‘ra innovatsiyalar tasniflash belgilari bo‘yicha turlarga ajratildi.

4. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, harajatlarni qoplash, yangiliklarni o‘zlashtirishga harajatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosida takomillashtirildi.

5. Korxonaning innovatsion faolligini yaxlit holda ko‘rib chiqqanda, moddiy harajatlar, natijadorlik va vaqt omillaridan foydalanishning umumiy ta’sir darajasini

hisobga olish zarur. Shunga ko'ra, korxonalar innovatsion faolligini oshirishning muhim iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlari sifatida tashqi raqobat muhiti, ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslandi.

6. Korxona innovatsion faoliyati resurslar ta'minoti, boshqaruv jarayoni va innovatsion salohiyat bilan bog'liq ichki hamda kontragentlar, bozordagi raqobat, ilm-fan va innovatsion infratuzilma rivojlanishining tashqi omillari ta'sirini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

7. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'sishi yuqori texnologik rivojlanish hamda intensiv iqtisodiy o'sishning omili sifatida YaXMni yillik o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, asosiy kapitalga kiritilgan yalpi investitsiyalar hajmini YaIMning o'sishiga ta'sirini aniqlovchi ICOR (incremental capital output) ko'rsatkichi aniqlandi.

8. Sanoat korxonasining innovatsion rivojlanish muammosini aniqlash, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni taklil etish, innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalarini belgilash, innovatsion salohiyatni baholash, uning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga yo'naltirilgan innovatsion strategiyani tanlash jarayonining algoritmi ishlab chiqildi.

9. Innovatsion loyihani amalga oshirishning moliyaviy to'lovga qodirligini baholash ko'rsatkichlari tizimi korxonaning rentabellik ko'rsatkichlari, investitsiyalardan foydalanish hamda moliyaviy holatni baholash ko'rsatkichlari asosida takomillashtirildi.

10. Sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni baholashning samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga mos holda diskontlangan ko'rsatkichlar va diskontlanmagan ko'rsatkichlar asosida qo'llanilish jarayoni bo'yicha tasnifi ishlab chiqildi.

11. Sanoat fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarida innovatsion loyihalarni optimallashtirishni hisobga olgan holda tanlangan innovatsion loyihalar realizatsiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatini boshqarish algoritmi ishlab chiqildi.

12. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish portfelini shakllantirishni nazarda tutuvchi hamda davlat va tarmoqning innovatsion rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda sanoatning fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan kontseptsiya shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

13. Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Korxona mahsulotlarani ishlab chiqarish uchun qilayotgan sarf xarajatlarini juda qattiq nazorat qilishi va o'rganishi lozim. Bu juda murakkab ammo zaruriy chora hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganimizda korxonaning rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni ishga solish zarur va bizning fikrimizcha korxonaning ilm fan bilan aloqalarini kuchaytirish talab qiladi. Korxona o'z faoliyatini tahlil qilish va uni rivojlantirishga olib keladigan omillarni belgilashi uchun yirik iqtisodchi olimlar bilan shartnoma asosida ish olib borishi kerak bo'ladi. Bu o'z samarasini beradi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- I. **Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**
 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 iyundagi PF-150-sonli "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/6060527>.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. <https://www.naveconomy.uz/index.php?newsid=58&seourl=tadbirkorlikni-rivozhlantirish-agentligi-tashkil-etildi&seocat=asosiy/yangiliklar>
 3. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda 69-II-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/31846>
 4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldagi O'RQ-483-son "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/3815461>
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063#5844066>
 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 29-dekabr №271-272 (7229-7230) soni.
 7. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/4664142>
 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentit Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023- yil 11-iyul kuni "Investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari" muhokamasi, <https://president.uz/uz/lists/view/6477>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 1-ilovasi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7 fevral. [https:// www lex.uz](https://www.lex.uz)
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 2017 yil 15 martdagi PK-2836-son qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha Davlat Qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 4 apreldagi PK- 2868-son qarori.
12. “Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2007 yil 4 yanvardagi qarori.
13. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha Davlat Qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 31 martdagi PF-4996-son Farmoni.
14. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

III. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoyish va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 302- son qarori, 2017 yil 19 may.
2. “Investitsiya loyihalari o‘z valyutada va sifatli amalga oshirilishi uchun loyihalar tashabbuskorlari bo‘lgan tashkilotlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 285-son qarori, 2017 yil 15 may.
3. “Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini loyihalashtirish ishlarini va ekspertizadan o‘tkazishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 15-son qarori, 2016 yil 22 yanvar.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banqida Jahon bozorlari, investitsiyalar va texnologiyalarni tahlil qilish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 143-son qarori, 2016 yil 5 may.
5. “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning halqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son qarori, 2016 yil 24 avgust.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni umumiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 205-son qarori, 2003 yil 2 may.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma‘ruzalari

7. Mirziyoev SH.M. qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.
8. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga ko‘ramiz. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 458 b.
9. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 104 b.
10. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi (o‘quv qo‘llanma) - T.: TDIU, 2011. 264 b.
11. Vahobov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. -T.: “Moliya”, 2002. -335 b.
12. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma / prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: «Moliya», 2010. 328 b.
13. Gozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.:”Moliya”, 2003. - 332 b.

V.

Internet saytlari

1. Доклад о мировых инвестициях 2021 инвестиции в устойчивое восстановление обзор. © 2021год, Организация Объединенных Наций https://unctad.org/system/files/official-document/wir2021_overview_ru.pdf.
2. Исследование цифровой экономики Узбекистана: инвестиции в ИТ-сектор за 4 года выросли в 4 раза. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/05/research/>

3. Analyticshelp.io” statistika agentligi ma’lumotlari. <https://website.informer.com/analyticshelp.io>
4. Digital around the world. <https://datareportal.com/global-digital-overview>.
5. Материалы http://www.mpsu.ru/files/sciense/conf/03Youth_family.pdf
6. Oxford English Dictionary. Third edition, March 2008: online version June 2012 <http://w\\rw.oed.com/view/Entry/74409>>; accessed.
7. EMCC (European Monitoring Centre on Change) [Electronic resource] / URL:
<https://www.eurofound.europa.eu/observatories/emcc/europeanjobs-monitor> (date of assessment: 18.05.2018).
8. Infografika: O‘zbekiston 2015-2020-yillarda Doing Business indeksida. <https://review.uz/oz/post/infografika-uzbekistan-v-indekse-vedenie-biznesa-2015-2020>
9. <http://o‘za.o‘z/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
160. <https://theworldonly.org/rejting-innovatsionnyh-ekonomik-2019/>
161. <http://www.tsue.uz>
162. <http://www.economics.com>
163. <http://www.gov.uz>
164. <http://www.stat.uz>
165. <http://www.lex.uz>

XOLMIRZAYEV ULUG‘BEK ABDULAZIZOVICH

XAKIMOVA GO‘ZAL AKBAR QIZI

**SANOAT KORXONALARINING INNOVASION
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.**

Monografiya

Muharir: Ilxomjon Xalilov

Musahhih: Nodira Jumabayeva

Bichimi: 60x84 1/16. Hajmi: 6,2 bosma taboq.

Ofest usulida bosildi. Buyurtma – 22

Adadi: 300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

**Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent shahar,
Shayxontovur tumani Navoiy ko‘chasi 30 uy.**

Tasdiqnoma raqami 3918.

“FAZILAT ORGTEX SERVIS” hususiy korxonasi

bosmaxonasida

chop etildi. Manzil: Namangan sh. Amir Temur ko‘chasi 97-uy.

Tel: (+998) 91-363-86-87, (+998) 97-256-87-86



Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich – 1984 yil Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Katta qo'rg'oncha qishlog'ida tavallud topgan. 1991-2001 yillarda To'raqo'rg'on tumanidagi 14-o'rta maktabda taqsil olgan. 2001-2005 yillarda Namangan muhandislik-iqtisodiyot institutini (hozirgi Namangan muhandislik-texnologiya instituti) “Buxgalteriya hisobi va audit” mutahassisliligini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 2007 yil shu institutning “Buxgalteriya hisobi” mutahassisliligi bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lgan.

2008-yildan hozirgi kunga qadar Namangan muhandislik-qurilish institutida faoliyat olib bormoqda. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 3 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanmasini nashr etilgan va 4 ta mualliflik huquqini beruvchi AKT guvohnomalari hamda 200 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari e'lon qilingan.

2013-yil “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”, 2021-yil “Korxona iqtisodiyoti” o'quv qo'llanmalarining hammuallifi.

2022 yilda Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovichning “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy aktivlar hisobi va tahlilini takomillashtirish” mavzusidagi 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.

U.A.Xolmirzayev NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida ishlash bilan birga yosh tadqiqotchilar ilmiy faoliyati yuksalishiga katta hissa qo'shib kelmoqda.



Xakimova Go'zal Akbar qizi 2004-yil 21- avgustda Namangan shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. U 2011-2017 yillari Namangan shahar 34-umumiy o'rta ta'lim maktabida keyin esa 2017-2018 yillarda Namangan shahar 8-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida boshlang'ich bilimni oldi so'ng, 2018-2022 yillarda Toshkent shahridagi 178-umumiy o'rta ta'lim maktabni a'lo baholarga tamomlab, 2022-yili Namangan muhandislik-qurilish instituti Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishiga to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi.

G.Xakimova hozirgi kunda dotsent U. Xolmirzayev ilmiy rahbarligida “Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida yuritishning o'ziga xos muammolari va yechimlari” mavzusida ilmiy tadqiqod ishini olib bormoqda. Yana u a'lochi talaba sifatida Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallarda hamda konferensiyalarda ko'plab maqolalar chop etib kelmoqda.

